

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Tar.01.04 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

OSTONOV OYBEK ALIQULOVICH

**XIX ASR OXIRI – XXI ASR BOSHLARIDA ZARAFSHON VOHASI
HUNARMANDCHILIGI TARIXI**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferatining mundarijasi
Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации
Contents of the abstract of the doctoral (DSc) dissertation

Ostonov Oybek Aliqulovich

XIX asr oxiri – XXI asr boshlarida Zarafshon vohasi
hunarmandchiligi tarixi.....3

Остонов Ойбек Аликулович

История ремесленничества Зарафшанского оазиса конца
XIX – начала XXI веков33

Ostonov Oybek Aliqulovich

The history of the handcraft Zarafshon valley at the end of the XIX century and
the beginning of the XXI century.....65

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works69

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Tar.01.04 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

OSTONOV OYBEK ALIQULOVICH

**XIX ASR OXIRI – XXI ASR BOSHLARIDA ZARAFSHON VOHASI
HUNARMANDCHILIGI TARIXI**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda globallashtirish jarayonlari tezlashib borayotgan hozirgi davrda an'anaviy madaniyat, urf-odat va qadriyatlarni saqlab qolish zaruriyati tobora oshib borishi yirik ta'lim dargohlarda xalq amaliy san'ati namunalarini tadqiqi etish bo'yicha izlanishlarni kuchaytirishni taqozo qilmoqda. Xususan, YUNESKOning "Hunarmandchilik mahsulotlari uchun sifat belgisi" Dasturi CACSA – Markaziy Osiyoda hunarmandchilikni qo'llab-quvvatlash tashkilotlari assotsiatsiyasi – hunarmandchilikning milliy va mintaqaviy xususiyatlarini saqlab qolish, hunarmandchilikda innovatsion yondashuvlarni rivojlantirishga e'tibor kuchaytirildi. 2016-yildan boshlab Dastur Butunjahon hunarmandlar uyushmasi (BPC) rahbarligi ostida qo'llab-quvvatlanib, hunarmandchilik mahsulotlari Jahon Savdo Tashkilotida tovarlar savdosi (GATT) va xizmatlar savdosi (GATS) bo'yicha bitimlar imzolandi.

O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichiga o'tayotgan hozirgi davrida, o'tmishda o'zbek xalqining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutgan hunarmandchilik tarixini izchil o'rganishga e'tibor kuchaydi. An'anaviy hunarmandchilikni qayta tiklash hamda rivojlantirish uchun muhim davlat dasturlari qabul qilindi. Bu holat Respublikamizda hunarmandchilikka doir islohotlarning bu sohani yanada rivojlantirishda muhim o'rin tutdi. "Hunarmandchilik sohasi – yangi ish o'rinlari tashkil qilish, yoshlarni foydali mehnatga jalb etish, turizmni rivojlantirish borasida ham katta imkoniyatlar manbai hisoblanadi. Shu bois yurtimizning barcha hududlarida ushbu sohani rivojlantirishga qaratilgan manzilli dasturlar amalga oshirilmoqda"¹. Yuqorida belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda o'tmishda mamlakatimiz hududlarida sodir bo'lgan voqea-hodisalarni izchil o'rganish, ularni xolisona ilmiy tahlil qilish davr talabiga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 31-martdagi PF-1741-sonli "Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'atini yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 17-noyabrdagi PF-5242-sonli "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 17-noyabrdagi PQ-3393-sonli "Hunarmand" uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida", 2017-yil 7-fevraldagi PF-4797-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2018-yil 1-noyabrdagi "2019-yil 10-15-sentabr kunlari Qo'qon shahrida Xalqaro hunarmandchilik festivalini o'tkazish to'g'risida", 2019-yil 3-oktabrdagi PF-5841-sonli "Xalqaro hunarmandchilik festivalini o'tkazib borishga oid chora-tadbirlar to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi qaror va farmonlari² hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur

¹ Мирзиёев Ш. Халқ заковати ва кадриятларининг гултожи // Ўзбекистон хунармандчилиги дурдоналари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – Б. 5.

² Халқ сўзи. 1997, 1 апрель; 2017, 9 февраль; 2017, 20 ноябрь.

dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Demokratik va huquqiy jamiyat ma’naviy-ma’rifiy, madaniy rivojlanish, innovatsion iqtisodiyotning shakllanishi” dasturi ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi³. Dunyoning bir qator mamlakatlarida hunarmandchilik sohasini rivojlantirish, amaliy san’at an’analarini saqlab qolish bo‘yicha quyidagi yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda, ular amaliy san’atni antropologik yondashuv asosida o‘rganish, hunarmandchilik nazariyasi, iqtisodiyotda hunarmandchilik sektorini yaratish, hunarmandchilikni modernizatsiyalashuvi, sohada institutsional asoslarni shakllantirish, qo‘lda hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqishda innovatsiyalarni qo‘llash, ishsizlik darajasini kamaytirish, mahsulotlar eksportini ko‘paytirish, bozor turizmi va muzeylardagi o‘rnini aniqlash kabilardan iborat.

Hunarmandchilik tarixiga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar dunyoning yetakchi ilmiy tadqiqot markazlari va oliy o‘quv yurtlarida bajarilib kelinayotgan tadqiqotlar doirasida, jumladan, Chexiyaning Naprstek muzeyi (Náprstek Museum, Prague), Britaniya Kengashi (British Council, UK), Jorj Vashington universiteti (George Washington University, USA), Germaniya Zamonaviy sharq markazi (Zentrum Moderner Orient, Germany), Yaponiyaning Xokkaydo universiteti Slavyan va Yevroosiyo ilmiy tadqiqot markazi (Slavic-Eurasian Research Center), Angliyaning Oksford universiteti (University of Oxford), Fransiyaning “Zamonaviy jamiyatlar antropologiyasi markazi” (Centre d’anthropologie des mondes contemporains), Rossiya Fanlar akademiyasi Etnologiya va antropologiya instituti (Rossiya), Kalgari universiteti (Kanada), Sharq davlat muzeyi (Rossiya), Sharq gilamlari jamiyati va Pauerxaus muzeyi (Avstraliya), Kanada to‘qimachilik muzeyi (Toronto, KTM)⁴, Minneapolis san’at instituti (AQSH), Virjiniya universiteti (University of Virginia, USA) tomonidan amalga oshirilmoqda.

Zarafshon vohasi xalq an’anaviy hunarmandchiligining o‘ziga xos lokal turlari va ular bilan bog‘liq an’analari, zargarlik buyumlari o‘ziga xosligi, to‘qimachilik buyumlarining tayyorlanishi (Chexiyaning Praga shahridagi Naprstek muzeyi), hunarmandchilik amaliyoti va an’analarini saqlab qolish rivojlantirish, yosh avlod tomonidan hunar turlarini o‘zlashtirishi, sohaga innovatsiyalarni olib kirish, madaniyatlararo fikr almashinuv (Britaniya Kengashining “Hunarmandchilik kelajagi loyihasi, Crafting Futures”), Markaziy Osiyo hunarmandchiligi doirasida Samarqand va Buxoro gilamlari, so‘zanalaridagi ramzlar va dizaynlari (George Washington University, AQSH), Zarafshon vohasi

³Dissertatsiya bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi: <https://www.prague.eu>; <https://design.britishcouncil.org/projects/craftingfutures/>; <https://www.britishcouncil.uz/programmes/arts/crafting-futures/>; <https://voicesoncentralasia.org>; <https://www.zmo.de>; <https://iea-ras.ru>; <http://www.ox.ac.uk/>; <http://www.global.hokudai.ac.jp>; <https://www.ucl.ac.uk>; <https://www.red-redial.net/fr/center-de-recherche-1103.html>; <https://contacts.Ucalgary.ca>; <https://maes.Museum/powerhouse-museum>; <https://rugsociety.org.au>; <https://www.Tripadvisor.ru/M.297>; <https://www.postgraduatefunding.com.Funding> Search; <https://www.Journals.uchicago.edu/pb-assets/doc.s/>

⁴ Muzeyda Buxoro, Nurota, Samarqand to‘qimachiligiga oid namunalar saqlanadi.

gilamdoʻzligi rivojlanishi xususiyatlari (Slavic-Eurasian Research Center, Yaponiya), oʻzbek anʻanaviy hunarmandchiligining Rossiya mustamlakasi va sovet davri tarixini tadqiq qilishda uslubiy yondashuvlar mohiyati yoritilgan (Rossiya Fanlar akademiyasi Etnologiya va antropologiya instituti); Zarafshon vohasining kashtachilik va gilamchiligiga oid maʼlumotlar toʻplangan, ekspozitsiyalar yigʻilgan (Kanada toʻqimachilik muzeyi, Toronto); amaliy sanʼatning antropologik yondashuvi asosida tadqiq qilishni ilmiy asoslari oʻrganilgan (Minneapolis sanʼat instituti va Virjiniya Universiteti, AQSH).

Zarafshon vohasi tarixiy-madaniy rivojlanish masalalari maxsus loyihalar sifatida xorijning bir qator yetakchi ilmiy markazlari YUNESKOning MOTXI, Oksford universiteti (Angliya), Rossiya FA va boshqalarda⁵ tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, XIX asr oxiri va XX asrning boshlarida yuz bergan oʻzgarishlarni tadqiq etish tarixiy voqelikni mintaqa darajasida koʻrish hamda har tomonlama baholash imkonini beradi, bu esa mavzuning xalqaro miqyosda dolzarb ekanligini koʻrsatadi.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Oʻrta Osiyo Rossiya mustamlakasiga aylantirilganidan keyin anʻanaviy hunarmandchilikning Turkiston xalqlarining xoʻjalik hayotidagi oʻrni boʻyicha dastlabki izlanishlar, shaxsiy kuzatuvlar asosida shakllangan. Bu borada olib borilgan tadqiqotlar va izlanishlar koʻlami kengligi, xolisonaligi bilan ajralib turadi. Ammo maʼlumotlar qisqa tavsifiy xarakterga ega boʻlib tizimli va muammoviy tahlil etilmagan. Sovet davrida tadqiqotchilar tomonidan hunarmandchilik tarmoqlari etnografik nuqtayi nazardan turli hududlar hunarmandchiligining xususiyatlari atroficha oʻrganildi. Hunarmandchilikni fanlar kesimida oʻrganishda, ayniqsa, sanʼatshunoslik alohida oʻrin tutgan. Biroq bu tadqiqotlar, asosan, hukmron mafkura tamoyillariga moslashtirilgan edi. Mustaqillik yillarida oʻzbeklarning anʻanaviy hunarmandchiligi tarixiy kesimda muayyan hududlar misolida tadqiq qilindi. Bu davrda yaratilgan tadqiqotlarda hunarmandchilik tarixini yoritish obyektiv xarakterga ega boʻldi. Mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar ishlarining umumiy tahlili shuni koʻrsatadiki, voha hunarmandchiligi va uning tarixiy jarayonlardagi transformatsiyasi alohida ilmiy muammo tarzida oʻrganilmagan. Shu bois, Zarafshon vohasining hunarmandchiligini tarixiy jihatdan tadqiq qilish dolzarb ilmiy ahamiyatga egadir (tadqiqotning oʻrganilish darajasi haqida dissertatsiyaning 1-bobida batafsil maʼlumot berilgan).

Dissertatsiya mavzusining ish bajarilgan oliy taʼlim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya Mirzo Ulugʻbek nomidagi Oʻzbekiston milliy universitetining ilmiy tadqiqot ishlari loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Zarafshon vohasi hunarmandchiligining XIX asrning ikkinchi yarmi – XXI asr boshlaridagi tarixini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tarixi fanida eʼtirof etilgan ilmiy qarashlar va nazariyalarga asoslangan holda

⁵YUNESKOning Samarqanddagi Markaziy Osiyo tadqiqotlari Xalqaro instituti. <http://www.unescoicas.org/ru/about>; <http://www.ox.ac.uk/>; <http://iea-ras.ru/>; <https://www.global.hokudai.ac.jp/>.

an'anaviy hunarmandchilikni o'rganishga oid nazariy-uslubiy jihatlarini ta'riflab berish;

muammoning tarixshunoslik tahlili asosida Zarafshon vohasi hunarmandchiligining rivojlanishini yoritish;

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Zarafshon vohasi ijtimoiy-iqtisodiy hayotida hunarmandchilik sohasidagi o'zgarishlar ta'sirini ochib berish, vohaga xos hunar turlariga talab va ehtiyojning oshib borishini tavsiflash;

sovet davrida hunarmandchilikka munosabat, bu borada olib borilgan islohotlar va ularning Zarafshon vohasi viloyatlarida joriy etilishi natijalari hamda hunarmandchilik markazlarining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish;

mustaqillik yillarida an'anaviy hunarmandchilikka doir islohotlar va o'zgarishlar hamda zamonaviy hunar turlarining ko'rinishlarini qiyosiy o'rganish;

xalq hunarmandchiligi an'analari va usta-shogird munosabatlarini ko'rsatib berish hamda Zarafshon vohasi hududlarida an'anaviy hunarmandchiligi bilan bog'liq o'zgarishlarni tahlil etish;

ilmiy xulosalarga tayangan holda Zarafshon vohasi hududlari aholisi hunarmandchiligi zamonaviy ko'rinishlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi amaliy, nazariy taklif va tavsiyalar bayon qilish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Zarafshon vohasining hunarmandchiligi belgilab olindi.

Tadqiqotning predmetini Zarafshon vohasi hunarmandchiligining Buxoro amirligi va Rossiya imperiyasining mustamlakachiligi davri, sovet davri hamda mustaqillik yillaridagi holati, undagi o'zgarishlar jarayoni, hunarmandchilik an'analari kabi masalalar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tarixiy izchillik, tarixiy qiyoslash, retrospektiv, strukturaviy nazariya usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Zarafshon vohasida hunarmandchilik aholining kundalik ehtiyojlarini qondiruvchi asosiy soha sifatida muhim o'rin tutsada, biroq Rossiyadan sanoat xom ashyosi va mahsulotlarining kirib kelishi temirchilik, misgarlik kabi an'anaviy hunar turlarining kuchayishiga to'qimachilikning chitgarlik, bo'zchilik sohalarining qisqarishiga sabab bo'lganligi ochib berilgan;

sovet hokimiyati davrida Zarafshon vohasini sanoatlashtirishning kuchayishi hududlarda mato ishlab chiqarish, gilamchilik, do'ppido'zlik, kulolchilik va yog'ochsozlik buyumlarining stanoklar yordamida tayyorlanishi natijasida mahalliy ishlab chiqarishning sanoat bilan almashinuvini an'anaviylikka salbiy ta'siri, kooperatsiyalashuv, artellar tashkil etish jarayoni tarixiy faktlar asosida dalillangan;

hunarmandchilik mahsulotlari mahalliy ishlab chiqarish usullariga asoslanganligi, uy-hunarmandchiligi xo'jalik-madaniy an'analari asosida shakllanganligi natijasida zardo'zlik, kashtachilik, gilamdo'zlik, kulolchilik, yog'ochga ishlov berish, metallga ishlov berish sohalarida yetakchi o'rin tutgan hunarmandlar sulolalari aniqlanib, asosan, kashtachilik hunari bilan

shug‘ullanganlar orasida hunarmandlar sulolalari ko‘pchilikni tashkil etganligi isbotlangan;

Zarafshon vohasi an‘anaviy hunarmandchiligi turlarining qayta tiklanib hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish xususiyatlari, ya‘ni xom ashyoni qayta ishlash, matolarga rang berish kabi usullar zamonaviy qiyofada (elektr dastgohlardan va sanoat usulida olingan ranglardan foydalanish) namoyon bo‘lganligi aniqlangan;

o‘tish davrida vohada hunarmandchilik maktablarining holati, ularning faoliyatidagi o‘zgarishlar, Zarafshon vohasi viloyatlarida hunarmandchilik tarmoqlaridagi hunarmandlarning ko‘payishi, mahsulotlar hajmi oshganligi, biroq hududga xos bo‘lmagan hunarmandchilik mahsulotlarining tayyorlanishi, qo‘lda mahsulot tayyorlashning an‘anaviy xususiyatlariga (hunarmandchilik maktablarining yo‘qolishiga) ta‘siri ko‘rsatib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston tarixi fanida mavjud tarixiy-falsafiy qarashlardan Zarafshon vohasi aholisi hunarmandchiligi muammosini fanlar kesimida tadqiq etishning nazariy-uslubiy jihatlari ishlab chiqilgan;

o‘rganilayotgan hududlar aholisi an‘anaviy hunarmandchiligining transformatsiya jarayonlari hamda unga ta‘sir etgan omillar aniqlangan va uni rivojlantirishga oid tavsiyalar ilgari surilgan;

tadqiqot davomida yig‘ilgan tarixiy materiallar, arxiv hujjatlaridan olingan ma‘lumotlar hamda ilmiy xulosalar respublika va viloyatlar “Hunarmand” uyushmalari hamda tadbirlar ishlab chiqish, davlat dasturlari ijrosini ta‘minlashda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligini ishda tarix fanida tan olingan yondashuv va usullar qo‘llanilganligi, ko‘p turdagi tarixiy adabiyotlardan foydalanilgani, arxiv hujjatlari, o‘rganilayotgan hududlar arxivi boshqarmalari materiallari, respublika “Hunarmand” uyushmasi va uning viloyatlar boshqarmalari hisobotlari, davriy matbuot, normativ asarlar, huquqiy-me‘yoriy hujjatlarga asoslangan xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati XIX asr ikkinchi yarmi – XXI asr boshlarida Zarafshon vohasi hunarmandchiligining transformatsiyasi umumlashtirilgan uslubiy yondashuvlar, nazariy xulosalar va tarix, etnografiya, sotsiologiya va san‘atshunoslik fanlari yo‘nalishlarini ilmiy nazariy jihatdan boyitishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Dissertatsiyaning amaliy ahamiyati jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishi, o‘zbek xalqi tarixiy va madaniy merosini asrash, boyitib borish, milliy mafkurani mustahkamlashda maqsadli davlat dasturlarining bajarilishiga, shuningdek, o‘zbek xalqi madaniyatiga oid bilimlarni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Zarafshon vohasi hunarmandchiligini tarixiy jarayonlar kontekstida yoritish bo‘yicha ishlab

chiqilgan ilmiy xulosa va takliflar asosida:

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Zarafshon vohasida hunarmandchilik aholining kundalik ehtiyojlarini qondiruvchi asosiy soha sifatida muhim o‘rin tutsada, biroq Rossiyadan sanoat xom ashyosi va mahsulotlarining kirib kelishi temirchilik, misgarlik kabi an’anaviy hunar turlarining kuchayishiga to‘qimachilikning chitgarlik, bo‘zchilik sohalarining qisqarishiga sabab bo‘lganligi ochib berilganligi bo‘yicha takliflar O‘zbekiston Respublikasi “Hunarmand” uyushmasi Samarqand viloyat boshqarmasida milliy hunarmandchilik an‘analarini targ‘ib qilish uchun “Zamonaviy Samarqand hunarmandchiligi” albom-katalogini yaratishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi “Hunarmand” uyushmasining 2020-yil 18-fevraldagi 03-14/238-son ma‘lumotnomasi). Bu o‘zbek xalqining tarixiy merosi, shuningdek hunarmandchilik bilan bog‘liq an‘analarni o‘rganishda muhim o‘rin tutgan;

sovet hokimiyati davrida Zarafshon vohasini sanoatlashtirishning kuchayishi hududlarda mato ishlab chiqarish, gilamchilik, do‘ppido‘zlik, kulolchilik va yog‘ochsozlik buyumlarining stanoklar yordamida tayyorlanishi natijasida mahalliy ishlab chiqarishning sanoat bilan almashinuvini an’anaviylikka salbiy ta’siri, kooperatsiyalashuv, artellar tashkil etish jarayoni tarixiy faktlar asosida dalillanganligi haqida xulosalar “O‘zbekistonda hunarmandchilik maktablari” faoliyatida foydalanilgan (Xalqaro “Oltin meros” xayriya jamoat fondining 2020-yil 18-fevraldagi 01-23-18.02.2020-son ma‘lumotnomasi). Milliy hunarmandchilik tarixi va an‘analarini dunyo jamoatchiligiga tanitish va targ‘ib qilish hamda hunarmandchilikni erkin rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishi, bugungi kungacha saqlanib qolgan amaliy san‘at va milliy hunarmandchilik maktablari an‘analarini asrash, xalqaro miqyosda keng targ‘ib etish xususida yangicha tafakkurni shakllantirishga xizmat qilgan;

hunarmandchilik tarixi va an‘analarini targ‘ib qilishda hamda Zarafshon vohasi an’anaviy hunarmandchiligi turlarini qayta tiklash borasidagi tahlillari va zamonaviy qiyofada ishlab chiqarish hamda milliy-an’anaviy hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, hunarmand sulolalar haqidagi ma‘lumotlari O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasining “Dunyo bo‘ylab” telekanalida 2019-yil efirga uzatilgan “Javohir” nomli turkum ko‘rsatuvlarni hamda “O‘zbekiston tarixi” telekanalida “Xayrli kun”, “Hunarmandchilik an‘analari” ko‘rsatuvlarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasining “Dunyo bo‘ylab” telekanali” davlat unitar korxonasining 2020-yil 20-fevraldagi 08-14-85-son, “O‘zbekiston tarixi” kanalining 2021-yil 5-oktyabrdagi 01-13-0414-son va 01-12-1464-son ma‘lumotnomalari). Ko‘rsatuvlarda hunarmandchilik tarixi va an‘analari, ustalarning hayotiy tajribalari, ish uslublari, bugungi islohotlarga munosabati ta’sirli yetkazilib, tadbirkorlik, obod va farovon hayotning qadriga yetish, yosh avlodni mehnatsevarlikka, qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini mustahkamlashga xizmat qilgan;

O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishish arafasida Zarafshon vohasi hunarmandchiligining ahvoli, o‘tish davrida vohada hunarmandchilik maktablari, an‘analari holati va o‘zgarishlar, Zarafshon vohasi viloyatlarida

hunarmandchilik tarmoqlaridagi yutuqlar va muammolar, hududda hunarmandlar tayyorlash, ustoz-shogird an'analari bo'yicha olingan ilmiy natijalar O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix institutida bajarilgan FA-A1-GO16 PZ-2014-0906065019 sonli "O'zbekistonning eng yangi tarixini fanlararo o'rganish: metodlar, yondashuvlar, konsepsiyalar" nomli amaliy loyihasida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2020-yil 25-iyundagi 3/1255-1314-son dalolatnomasi). Bu sovet davrida va mustaqillik yillarida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlarni birlamchi manbalar asosida chuqurroq yoritib berishga imkon yaratgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 32 ta ilmiy amaliy anjumanlarda, shu jumladan, 8 ta xalqaro va 24 ta Respublika miqyosidagi konferensiyalarda aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 44 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 13 ta maqola, jumladan, 10 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot kirish, 4 bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 239 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmetlari belgilangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishiga doir ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Hunarmandchilikni o'rganishda nazariy uslubiy yondashuvlar va mavzu tarixshunosligi**" deb nomlangan birinchi bobida an'anaviy hunarmandchilikni o'rganishda tarixiy yondashuv va tadqiqotlarga oid ilmiy qarashlar hamda mavzu tarixshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilingan.

Bobda *strukturalizm* va *modernizatsiya* nazariyalari kontekstida an'anaviy hunarmandchilik transformatsiyasi yoritilgan. Hunarmandchilik moddiy merosning nodir namunasi sifatida aholining uy-ro'zg'or, estetik va boshqa ehtiyojlarini qondirish darajasi ekanligi aniqlangan.

Zarafshon vohasi (Samarqand, Navoiy va Buxoro viloyatlari) hududlarining an'anaviy hunarmandchiligi o'rganilayotgan davrlarning barcha bosqichlarida yuz bergan o'zgarishlar turli omillar ta'sirida bo'lganligi ochib berilgan.

Hunarmandchilik jamiyat rivojlanishi davomida asta-sekin dehqonchilik va chorvachilikdan ajralib chiqib turli ijtimoiy tarixiy davrlar doirasida texnika rivoji bilan aloqador holda takomillasha bordi, turli ixtisosliklarga ajraldi. Hunar tarmoqlari barcha joylarda bir xil bo'lmasdan, balki tabiiy resurslarning mavjudligiga qarab rivoj topgan va ma'lum hududlarda taraqqiyotga erishgan.

Hunarmandchilikning rivojlanishi xo‘jalik va madaniy an‘analar mavjudligiga bog‘liqligi bois, tadqiqotda strukturalizm⁶ va modernizatsiya⁷ nazariyalaridan foydalanildi.

Tadqiqotda Zarafshon vohasi an‘anaviy hunarmandchiligi rivojlanishini tarixiy jarayonlar kontekstida tahlil etishda o‘zgarishlarning sabab-oqibatlarini ko‘rsatadigan *strukturaviy yondashuv* usuli qo‘llanildi.

Mamlakatimizda hunarmandchilik qadimdan chuqur ixtisoslashgan bo‘lib, o‘zida turli kasb-korlarni birlashtirgan. Jumladan, terini qayta ishlash bilan ko‘nchilar, etikdo‘zlar, mahsido‘zlar, kovushchilar, egar-jabduqchilar, telpakchilar, po‘stinchilar, kamarchilar; to‘qimachilik bilan bo‘zchilar, atlaschilar, gilamchilar, sholcha va namatchilar; metallni ishlash bilan temirchilar, taqachilar, misgarlar, chilangarlar, zargarlar shug‘ullangan. Bular hunarmandchilikning tarmoq strukturasini belgilagan. Hunarmandchilik ijtimoiy tizimda inson o‘zaro faoliyatining turli ko‘rinishlari va tarkibiy jihatlarini namoyon qiladi hamda ularning muvofiqligini saqlab turadi⁸. Britaniyalik etnograf olim Alfred Redjinald Redkliff-Brauning so‘zlariga ko‘ra ijtimoiy munosabatlar inson ehtiyojlarini qondirish va madaniyatni shakllantirish hamda o‘zaro ta‘sir jarayonlarida katta ahamiyatga ega ekanligini, ijtimoiy-madaniy antropologiyani etnografiya tomonidan to‘plangan nazariy materiallarning eng yuqori darajasi deb hisoblaydi va empirik usullardan foydalanish zarur deb ta‘kidlaydi⁹.

T.Parsons o‘zining “Ijtimoiy harakatlarning tuzilishi” asarida¹⁰ inson harakatlari har qanday ijtimoiy hodisa va jarayonning paydo bo‘lishi hamda undan keyingi faoliyatning asosiy omili ekanligi haqidagi fikrni asoslab bergan. Shu sababli ma‘lum bir ijtimoiy hodisa va jarayonning mazmunini hamda ijtimoiy ahamiyatini tushunish uchun odamlar faoliyati motivlarini, uning mazmuni va ijtimoiy yo‘nalishlarini o‘rganish kerak bo‘ladi. Masalan, sharqdagi musulmon ustaxonalarida bo‘lgani kabi Zarafshon vohasida chevarlik, kashtachilik bilan ayollar uyda o‘tirib shug‘ullanishgan.

Hunarmandchilikning ijtimoiy strukturasida usta, xalfa va shogird kabi ijtimoiy toifalar mavjud bo‘lgan. Hunarmandchilikning ichki tartib va qoidalarini uning nizomi sifatidagi “Risolalar” belgilab bergan. Har bir kasbning o‘z rahnamosi, ya‘ni piri va “Risolasi” bo‘lgan, avloddan avlodga o‘tuvchi odatlar va udumlarga rioya qilingan. Masalan, ish boshlashdan oldin usta o‘z pirini yodga olib undan madad so‘rash, shogirdiga fотиha berish kabi odatlarga amal qilingan.

⁶ Структурно-функциональный подход. – М., Наука, 1987. – С. 27; Рэдклифф-Браун А.Р. Структура и функция в примитивном обществе. Очерки и лекции. Пер. с англ. – М.: Изд-во Восточная литература РАН, 2001. – 304 с.; Radcliffe-Brown A.R. Structure and Function in Primitive Society Essays and Addresses. – London: Cohen & West LTD, 1952; Talcott Parsons. The structure of social action. – New York: McGraw-Hill Book Company, 1937.

⁷ Красильщиков В.А. Модернизация и Россия на пороге XXI века // Вопросы философии, 1993. – № 7. – С. 40; Он же. Мировые модернизации и судьбы модернизации // Свободная мысль, 1999. – № 1. – С. 93; Старостин Б.С. Модернизация и национальная культура. – Москва, 1995.

⁸ Структурно-функциональный подход. – М., Наука, 1987. – С. 27; Рэдклифф-Браун А.Р. Структура и функция в примитивном обществе. Очерки и лекции. Пер. с англ. – М.: Изд-во Восточная литература РАН, 2001. – 304 с.

⁹ Radcliffe-Brown A.R. Structure and Function in Primitive Society Essays and Addresses. – London: Cohen & West LTD, 1952.

¹⁰ Talcott Parsons. The structure of social action. – New York: McGraw-Hill Book Company, 1937.

Jamiyat taraqqiyotining turli davrlardagi madaniy o'zgarishlar hunarmandchilikning rivojlanishi va takomillashuviga o'z ta'sirini o'tkazgan. Hunarmandchilik modernizatsiyasi jamiyatni zamonaviy talablariga muvofiq, takomillashtirish maqsadida xilma xil o'zgarishlarni amalga oshirishdan iborat ijtimoiy tarixiy jarayonni ifodalovchi tushunchadir¹¹. Modernizatsiya tushunchasi jamiyatni nazariy metodologik tadqiq etishda ishlatiladi. Bu g'oya evolyutsionizm va funksionalizm ta'sirida vujudga kelgan. Dastlabki modernizatsiya dasturlari XX asr o'rtalarida AQSH va Yevropa olim hamda siyosatchilari tomonidan kommunistik rivojlanish yo'liga qarama-qarshi jamiyatning rivojlanish yo'li sifatida taqdim etilgan. Unda modernizatsiya bozor qonuniyatlariga asoslangan iqtisodiyotni va fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan jarayon sifatida ifodalangan.

Modernizatsiya nazariyasining tarixiy ildizlari O.Kont, G.Spenser, M.Veber, E.Dyurkgeym, F.Tyonnis asarlariga borib taqaladi¹². Ularning ta'limoti tarixiy taraqqiyot muayyan progressiv bosqichlardan iboratligi g'oyasiga asoslangan edi. Klassik modernizatsiya nazariyalari esa g'arb ijtimoiy fanlarida XX asrning 50-60-yillarida AQSHda shakllana boshlagan bo'lib, uning yirik vakillari U.Rostou, G.Almond, D.Apter, L.Pay, S.Eyzenshtadt, S.Xantington, T.Parsons va b. edi¹³. O'sha davrda modernizatsiya iborasi bir vaqtning o'zida ham ijtimoiy yangilanishlar bosqichini (holatini), ham zamonaviy jamiyatlarga o'tish jarayonini yuklanganligini, yetarli darajada rivojlangan jamiyatlar e'tiborga olishi kerak bo'lgan hozirgi zamon jamiyati mezonlarini mujassamlashtirgan edi¹⁴.

Hunarmandchilik modernizatsiyasi jamiyat rivojlanishida shaharlarning mavqeyining oshishi, jumladan, hunarmandlar uchun turar joy va ustaxona do'konlarning yaratib berilishi, hunarmandchilik mahsulotlarini qo'lda tayyorlash, sanoatlashuv jarayonining yuzaga kelishi kuzatiladi. Hunarmandchilik modernizatsiyasi ijtimoiy-tarixiy hodisa bo'lib, u davlat, jamiyat hayotining ma'naviy-madaniy, iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sohalarini qamrab oladi¹⁵.

Davr taqozosi bilan hunarmandchilikning yangi-yangi turlari vujudga keladi.

¹¹ Красильщиков В.А. Модернизация и Россия на пороге XXI века // Вопросы философии, 1993. – № 7. – С. 40; Он же. Мировые модернизации и судьбы модернизации // Свободная мысль, 1999. – № 1. – С. 93; Старостин Б.С. Модернизация и национальная культура. – Москва, 1995.

¹² Конт О. Курс позитивной философии Антология мировой философии. Т. 3. – Москва, 1971. – С. 384-386; Он же. Дух позитивной философии. – СПб, 1910; Спенсер Г. Синтетическая философия: пер. с англ.: серия "Познание"; Вып. 2. – Киев: Ника-центр, 1997. – С. 512; Дюркгейм Эмиль. О разделении общественного труда: Метод социологии / пер. с фр. – М., 1991. – 572 с.; Вебер М. Город – Пг, 1923; Вебер М. История хозяйства – Пг, 1923; Ferdinand Tonnies. Gemeinschaft und Gesellschaft. 6u.7. aufl. –Berlin (Curtius), 1925; Маркс Карл. Капитал. Критика политической экономии. Т. 1. – Москва, 2013.

¹³ Almond G & Pauell D. Comporative Politology. Approach from the position of "Development conception". – Princeton, 1966; Apter D. Modernization policy. – New York, 1965; Lipset S. Politicion man. – New York, 1960; Pay L. Political development aspects. Analitical research. – London, 1966; Rustrow D. Peace of Nations. – Washington, D.C., 1967; Eisenstadt S.M. Modernization: Protest and Change. – Bonn, 1966; Hantington S. Political Order in Changing Societies. – New Haven, 1970; Парсонс Т. Система современных обществ. – М.: Аспект-Пресс, 1997.

¹⁴ Соловьев А.И. Политология: политическая теория, политические технологии. – М., 2000. – С. 297.

¹⁵ Давлатова С. Хунармандчилик модернизациясининг назарий жиҳатлари / "XXI аср – интеллектуал ёшлар асри" мавзусидаги Республика илмий ва илмий-техник анжуман материаллари. – Тошкент: ЎзР ФА, 2018. – Б. 57.

Hunarmandlar ham turli mahsulotlar tayyorlash bo'yicha ixtisoslasha bordilar¹⁶. Hozirgi davr dunyoqarashi nuqtayi nazaridan qaralganda, texnik jarayonlarning yuzaga kelishi hunarmandchilikning beixtiyoriy yo'qolishiga olib keldi¹⁷. Hunarmandchilik ham xuddi yirik sanoat ishlab chiqarishiga o'xshab, sanoat inqilobi va undan keyin modernizatsiya davrida, raqobatni surib chiqaruvchi doimiy o'zgarish va transformatsiyalarga bardosh berib taraqqiy etib borgan¹⁸. Modernizatsiya nazariyasi zamonaviylikning yangi qarshiliklariga moslashuvi yuqori bosqichini ko'rsatdi. Modernizatsiya tushunchasi zamonaviylikning ikki ko'rinishini: "ko'p miqdorda" modernlar nazariyasi va reflektiv (jarayonning aksi, oqibati) modernizatsiyaga bo'linadi. Iqtisodiy rivojlanish davrida hunarmandchilikda ham uning o'rnini topishga erishildi. Natijada, hunarmandchilik zamonaviy sharoitlarda o'zining yuqori moslashuvini ko'rsatdi va G'arb davlatlarida keng tarqalishiga erishdi¹⁹.

Modernizatsiyani keltirib chiqaradigan, madaniy taraqqiyotga ta'sir etadigan asosiy omillardan biri – industrilashtirish va globallashtirish hisoblanadi. Globallashtirish jarayonlari tufayli hunarmandchilik buyumlarida g'arblashtirish (vesternizatsiya) sezila boshlandi. Hozirgi kunlarda Zarafshon vohasining turistik imkoniyatlari katta shaharlarida tayyorlanayotgan hunarmandchilik buyumlari batamom modernizatsiyalashgan bo'lsa-da, lekin ularda xalq hunarmandchiligining o'ziga xos an'analari ham davom etdi.

Modernizatsiya hunarmandchilikka oid islohotlarning intensivligi, ya'ni an'ana va zamonaviylashtirilgan qadriyatlarining qorishuvi bilan bog'liq. Chunki modernizatsiya an'analarni inkor qilmaydi, balki ular asosida olib boriladi.

Hunarmandchilik nafaqat milliy an'ana va qadriyat, balki daromad keltiruvchi soha sifatida xalq xo'jaligida o'zining o'rniga ega bo'la boshladi. Qolaversa, bozor iqtisodiyoti sharoitida hunarmandchilikdagi transformatsiyalar kasanachilik, bozor turizmi, kichik biznes va tadbirkorlik ko'rinishlarida namoyon bo'lmoqda²⁰. Bugun O'zbekistonda iqtisodiyotida turizm infrastukturasini rivojlantirish va bozor iqtisodiyoti sharoitida milliy hunarmandchilik buyumlarini ishlab chiqarish bozori shakllandi. Hunarmandchilik mahsulotlari sovg'abop buyumlar bozori negizini, ya'ni hunarmandchilik tijorati asosini tashkil qiladi.

Hunarmand mehnati o'z kuchi va o'ziga ahamiyatga ega bo'lib, kam chiqimli, iste'molga zarur, ekologik va o'zi yetkazib beradigan mahsulotlar g'oyalariga mos keladi. Bunday ishlab chiqarish ekspansiv o'sishga, resurslarni yo'q qilishga va

¹⁶ Ўлмасов А., Мусаев Н., Остонов О. Хунармандчилик. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 11-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2005. – Б. 392.

¹⁷Fischer W. Wirtschaft und Gesellschaft im Zeitalter der Industrialisierung. Aufsätze – Studien – Vorträge. – Göttingen: Vandenhoeck & Ruprecht, 1972. – P. 3.

¹⁸ Келлер А. Городское ремесло в контексте теории модернизации: к постановке проблемы // Quaestio Rossica. Т. 5, 2017. – № 1. – С. 3.

¹⁹ Егоров В.Г., Чистова С.М. Городское ремесленное производство России в отечественной историографии. – М.: ГОУ ВПО МГУИ, 2009. – С. 222; Kaufhold K. H. Das Handwerk zwischen Anpassung und Verdrängung // H.Pohl (Hg.). Sozialgeschichtliche Probleme der Hochindustrialisierung (1870-1914). –Paderborn, München, Wien, Zürich: Schöningh, 1979. – P. 103-141.

²⁰ Давлатова С.Т. Ўзбек анъанавий хунармандчилиги тарихий жараёнлар контекстида (Ўзбекистоннинг жанубий худудлари мисолида). – Тошкент: YANGI NASHR, 2018. – Б. 258.

nosog‘lom iste‘mol qiziqishlarni paydo bo‘lishiga yo‘naltirilmagan²¹. Hunarmandchilik rivoji sanoat inqilobi davrida ham to‘xtamadi, ammo hunarmandchilik ishlab chiqarish tayanch asosini saqlashi bilan anchagina zamonaviylashtirishga bardosh berdi.

Dissertatsiyaning **mavzu tarixshunosligi** qismida hunarmandchilik mavzusiga oid adabiyotlar davriy va muammoviy tamoyillarga ko‘ra to‘rt guruhga bo‘lib tahlil qilingan: 1) *mustamlaka davri nashrlari*; 2) *sovet davri tadqiqotlari*; 3) *mustaqillik yillaridagi ilmiy izlanishlar*; 4) *xorijiy tadqiqotchilarning izlanishlari*.

O‘zbekiston tarixshunosligida XIX asr oxiri – XXI asr boshlarida sodir bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni o‘rganish borasida bir qator ishlar amalga oshirildi. Bu borada olib borilgan tadqiqotlar ilmiy ko‘lamining kengligi bilan ajralib turadi. Shunga qaramay, XIX asr oxiri – XXI asr boshlarida Zarafshon vohasining hunarmandchiligi tarixi mavzusi hozircha alohida tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilgan emas. Ushbu muammoning ayrim tomonlari va qirralari boshqa masalalar bilan umumiy bog‘liq holda ko‘rib chiqilgan xolos. O‘rganilayotgan mavzuning ayrim jihatlarini qator adabiyotlarda u yoki bu darajada o‘z aksini topgan.

Birinchi guruhga Rossiya imperiyasining Turkiston o‘lkasiga bostirib kirishi arafasida va hukmronligi davrida chop etilgan adabiyotlar kiradi. Ta’kidlash joizki, Turkistonni Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi arafasida rus sayyohlari, savdogarlar va tadqiqotchilar o‘lkaga kelishib, o‘rganilayotgan mavzuga oid ma’lumotlar qoldirishgan²².

Bu asarlarda Zarafshon vohasining hunarmandchiligi, savdo aloqalari haqidagi tasavvurlarimizni boyitadigan ko‘plab fikr-mulohazalar ham uchraydi. Turkiston Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingandan keyin o‘lkaga kelgan mualliflarning asarlarida hunarmandchilik va savdo-sotiq ishlari atroflicha yoritilgan²³.

²¹ Клеман К. Труд не на рабочем месте // Отеч. зап., 2007. – № 4. – С. 37-55; Сеннет Р. Капитализм в большом городе: глобализация, гибкость и безразличие // Логос, 2008. – № 3 (66). – С. 95-107; Sennett R. The Craftsman. – New Haven: Yale Univ, 2008. – 326 p.

²² Бутенов К.Ф. Заводское дело в Бухарии // Горный журнал. Ч. V, кн IX. – СПб., 1842; Небольсин П.И. Очерки торговли России со странами Средней Азии Хивой, Бухарой и Коканом (со стороны Оренбургской линии) – СПб. 1856; Бернс А. Путешествие в Бухару. – М., 1849; Ханыков Н.В. Описание Бухарского ханства. – СПб. 1843.

²³ Пашино П.Ч. Туркестанский край в 1866 году. Путевые заметки. – СПб., 1868; Костенко Л.Ф. Путешествие в Бухару русской миссии в 1870 г. – СПб., 1871; Краузе Л. Заметки о красильном искусстве туземцев // Сб. Русский Туркестан Вып. 2. – СПб., 1872; Петровский Н.Ф. Моя поездка в Бухару // Вестник Европы, 1873. – № 3; Соболев Л.Н. Географические и статистические сведения о Зеравшанском округе. – СПб., 1874; Бродовский М.И. Техническое производство в Туркестанском крае. Приложение к промысловому альбому. – СПб., 1875; Радлов В.В. Средняя Зеравшанская долина // Зап. Рус. геогр. о-ва. по отд. этнографии. Т. VI. – СПб., 1880; Вирский М.М. Выставка сельского хозяйства и промышленность в Самарканде в 1884. – Самарканд, 1895; Кирпичников Н.А. Краткий очерк некоторых туземных промыслов Самаркандской области // Справочная книжка Самаркандской области 1897 г. – Самарканд, 1897; Губаревич-Радобыльский А. Экономический очерк Бухары и Туниса, Опыт сравнительного исследования двух систем протектората. – СПб., 1905; Гейер И.И. Туркестан. – Ташкент, 1909; Логофет Д. Бухарское ханство под русским протекторатом. – СПб., 1911; Поспелов О. Кустарная промышленность в Катта-Курганском уезде // Туркестанское сельское хозяйство, 1912, – № 8; Гаврилов М. Рисаля сартовских ремесленников. Исследование преданий мусульманских цехов. – Ташкент, 1912; Конопка С.Р. Туркестанский край. – Ташкент, 1912; Масальский В.И. Туркестанский край // Россия. Т. XIX. – СПб., 1913.

Bu davrda yozilgan ishlarning ahamiyatli jihati shundaki, ushbu asarlarning mualliflari o'sha davr hayotini o'z ko'zlari bilan ko'rib, zarur xulosalar ham chiqarishgan. Mazkur asarlarda Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoga bostirib kirishi, xususan, Zarafshon vohasida hunarmandchilik va savdo ishlariga doir qiziqarli ma'lumotlar bilan bir qatorda, tanqidiy tahlilni talab etuvchi chalkash fikrlar va g'aliz xulosalar ham uchraydi.

Turkistonga kelgan elchilar va savdogarlar orasida mahalliy hunarmandchilik sohalarini alohida o'rganishga intilganlar ham bo'lgan. Ular hunar tarmoqlarining ba'zi jihatlarini yoritish bilan cheklanganligiga qaramay, voha aholisining turmush tarzi, ayniqsa, hunarmandchiligi masalasiga ham qiziqish bilan e'tibor qaratishgan. Rossiya imperiyasining hukmronligi davrida o'lkaning boyliklariga, hunarmandchilik sohalariga katta qiziqish bilan qaraganlar. Hunarmandchilik sohalarini o'rganish, dastlab, imperiya manfaatlaridan kelib chiqib hunarmandchilikning serdaromad sohalariga va mahsulotlarni o'z bozorlarida tutgan o'rniga ko'proq e'tibor berishgan²⁴.

Ikkinchi guruhga sovet hukmronligi davrida chop etilgan maqola, risola va adabiyotlar kirgan. Sovet davrining dastlabki yillarida O'zbekiston hunarmandchilik ishlab chiqarishiga alohida e'tibor qaratilgan. Ularda yangi iqtisodiy siyosat davrida sanoatning yirik xom-ashyo bazasiga aylanishi, hunarmandlarni artellarga birlashtirish siyosati, ishlab chiqarilgan mahalliy mahsulotlardan foydalanish jarayonlari tahlil qilingan. Shuningdek, hunarmandchilik ishlab chiqarishini natsionalizatsiya qilish, hunarmandlarning davlat korxonalariga ishga o'tishi, kasaba uyushma (profsoyuz)lariga kirishi, an'anaviy sex normalari va shogirdlik an'alarining buzilishi ham tahlilga tortilgan²⁵. Bu davrda mavzuga oid bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Shuni ham ta'kidlash joizki, ushbu maqola, risola va adabiyotlarda kommunistik mafkura manfaatlari, sinfiylik nuqtayi nazaridan bir tomonlama yondashuv ko'zga tashlanadi. Bu hol sovet hukumati davrida yozilgan adabiyotlarda masalani izchil va haqqoniy tahlil qilishga imkon bermagan. Bunday adabiyotlar qatoriga I.A.Remez, G.Spasskiy, V.Balkov, B.A.Desyatchikov, P.M.Ponomarev, O.A.Suxareva, A.M.Aminov, Ye.M.Peshereva, Ye.V.Bunakov, A.Morozova, R.Ya.Rassudova, D.Faxretdinova, T.Abdullayev, R.G.Mukminova, L.I.Rempel,

²⁴ Бутенов К. Заводское дело в Бухарии. Монетное дело в Бухарии. Замечание о ковке булата в Бухарии // Горный журнал. Книга 2. Часть 4, 5. 1842; Будрин А. Русские в Бухаре в 1820 году (Записки очевидца). Справочная книжка Оренбургского края на 1871 год. – Оренбург, 1871; Мейендорф Г. Путешествие из Оренбурга в Бухару в 1820 году. – М.: Наука, 1975; Соболев Л.Н. Географические и статистические сведения о Зеравшанском округе. – СПб., 1874; Стремоухов Н. Поездка в Бухару // Русский вестник, 1875. – № 6; Радлов В.В. Средняя Зеравшанская долина // Записки РГО. По отд. Этнографии. Т. VI. – СПб., 1889; Вирский М.М. Выставка сельского хозяйства и промышленности в Самарканде в 1884. – Самарканд, 1895; Кирипичников Н.А. Краткий очерк некоторых туземных промыслов Самаркандской области // Справочная книжка Самаркандской области 1897 г. – Самарканд, 1897. – С. 31.

²⁵ Современный кишлак Средней Азии (социально-экономический очерк). Вып. IV. Вобкентская волость (Зеравшанской области Узбекской ССР) / Под ред. Б.Б.Карт и И.Е.Суслова. – Ташкент, 1926. – С. 273; Балков В. Кустарно-ремесленная промышленность Средней Азии. История, современная организация и перспективы мелкой промышленности. – Ташкент: Изд-во САГУ, 1927. – С. 194; Пещерева Е.М. Из истории цеховых организаций в Средней Азии // Краткие сообщения Института этнографии. – М.-Л., 1949. Вып. 6. – С. 34-36.

P.A.Goncharovalarning²⁶ tadqiqotlarini kiritish mumkin. Shunga qaramasdan, mazkur ishlarda mavzuga oid qiziqarli ma'lumotlar uchraydi.

Bu davrda yaratilgan asarlarning ilmiy tahliliga e'tibor qaratsak, ularda O'zbekiston tarixiy taraqqiyotining umumiy manzarasi bilan bir qatorda milliy hunarmandchilik masalalari, hunarmandlar hayotida sodir bo'lgan o'zgarishlar, ya'ni milliy hunarmandchilikni sanoat usulida qayta qurish masalalari ijobiy o'zgarish sifatida talqin etib kelingan²⁷. Ularda hunarmandchilik sohasidagi o'zgarishlar hukmron mafkuraning respublikadagi yaratuvchilik faoliyatining samarasi sifatida baholangan.

XX asrning 50-70-yillarida milliy hunarmandchilik sohasini tarix va san'atshunoslik yo'nalishlari bo'yicha o'rganilgan asarlarda badiiy hunarmandchilikning sotsialistik g'oya bilan uyg'unlashuvi, xususan, hunarmandchilik sohasining sotsializm sharoitida qayta tiklanishi hamda ularning yangi mazmun va ko'rinishlarda namoyon bo'lishi talqin etilgan²⁸. Mazkur asarlarda O'zbekiston xalqlari turmushida hunarmandchilikning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy ahamiyati kommunistik mafkura nuqtayi nazaridan tahlil etilganligini kuzatish mumkin²⁹.

Shuni ta'kidlash joizki, ikkinchi guruhga kirgan adabiyotlarning asosiy qismi

²⁶ Ремез И.А. Внешняя торговля Бухары до мировой войны: Опыт историко стат. обзор внешней торговли ханства вне сферы томоженных объединений его с Российской империи. – Ташкент, 1922; Спасский Г. Новейшее описание великой Бухарии // Азиатский вестник. – Москва, 1925. – № 5; 1926. – № 6; Балков В. Кустарно-ремесленная промышленность Средней Азии. – Ташкент, 1927; Десятчиков Б.А, Пономарев П.М. Социалистическая реконструкция ремесленно-кустарной промышленности УзССР. – Ташкент, 1940; Сухарева О.А. К истории городов Бухарского ханства (историко - этнографические очерки). – Ташкент: Изд. АНУзССР, 1958; O'sha muallif. Позднефеодальный город Бухара конца XIX начале XX века. –Ташкент, 1962; O'sha muallif. Бухара XIX и начале XX века. – М.: Наука, 1966; O'sha muallif. История среднеазиатского костюма: Самарканд (2-я половина XIX начала XX века). – М., 1982; Аминов А.М. Экономическое развитие Средней Азии. – Ташкент, 1959; Пещерева Е.М. Гончарное производство Средней Азии. – М-Л., 1959; Бунаков Е.В. Тенденции развития капиталистических отношений в Средней Азии накануне присоединения её к России // Проблемы востоковедения. – М.: Изд АН СССР, 1960. – № 6; Морозова А. Декоративная машинная вышивка. – Ташкент: Гослитиздат, 1960; Рассудова Р.Я. Занятия населения // Этнографические очерки Узбекского сельского населения. – М., 1969; Фахретдинова Д.А. Декоративно-прикладное искусство Узбекистана. – Ташкент, 1972; Абдуллаев Т. XIX-XX асрларда ўзбек кандакорлиги. – Тошкент: Фан, 1974; Мукминова Р.Г. Очерки истории ремесла в Самарканде и Бухаре в XVI в. – Ташкент, 1976; Ремпель Л.И. Далёкое и близкое. Страницы жизни, быта, строительного дела, ремесла и искусства старой Бухары. – Ташкент, 1981; Гончарова П.А, Бухоро зардўзлик санъати. – Тошкент, 1986.

²⁷ Победа Советской власти в Средней Азии и Казахстане. – Ташкент: Фан, 1967; Очерки истории Коммунистической партии Узбекистана. – Ташкент, 1974.

²⁸ Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Выдающиеся памятники архитектуры Узбекистана. – Ташкент: АН Уз ССР, 1958; Аведова Н.А. Пагоги. – Ташкент, 1958; Пугаченкова Г.А., Пещерева Е.М. Гончарное искусство Средней Азии. – Москва – Ленинград, 1959; Аведова Н.А. Ташкентская резьба по дереву в работах Максуда Касьмова. – Ташкент, 1961; Ремпель Л.И. Резьба и роспись по ганчу и дереву. – Ташкент, 1962; Рахимов М.К. Художественная керамика Узбекистана. – Ташкент, 1962; Жадова Л.А. Современная керамика Узбекистана. – Москва, 1963; Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. История искусств Узбекистана. – Москва, 1965; Зохидов П. Самарканд меъморчилик мактаби. – Тошкент, 1965. Новосёлова К. Ўзбекистон архитектура ёдгорликлари (ўрганиш, саклаш, тиклаш). – Тошкент, 1967. Гражданкина Н.С., Рахимов М.К., Плетнев И.Е. Архитектурная керамика Узбекистана. – Ташкент, 1968.

²⁹ Шокирова С.Н. Социалистическое пробразование ремесленно-кустарного производства в Советском Туркестане. – Ташкент: Фан, 1978; Пугаченкова Г.А. Ремпель Л.И. Очерки искусства Средней Азии. – Москва, 1982; Аведова Н.А. Кустарные промыслы в быту народов Узбекистана XIX-XX вв. – Ташкент: Фан, 1986; Хакимов А.А. Современное декоративное искусство республик Средней Азии. – Ташкент, 1988; Луний Б.В. История Узбекистана в источниках. – Ташкент, 1990; Бардина Р.А. Изделия народных художественных промыслов и сувениры. – Москва, 1990.

kommunistik g'oyalarni targ'ib qilish orqali, o'lkada asrlar davomida shakllanib kelgan tadbirkorlik usullari, mulkka egalik munosabatlari mafkuraviy manfaatlar nuqtayi nazaridan tanqid qilindi.

Uchinchi guruh adabiyotlariga mustaqillik yillarida olib borilgan ilmiy izlanishlar kiradi. Bu davrda XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligi, xususan, Zarafshon vohasi tarixiga oid bir qator ilmiy maqola, risola, monografiya va o'quv qo'llanmalari nashr etildi³⁰. O'rganilayotgan davrga oid adabiyotlarda yangicha metodologik nuqtayi nazar bilan yondashilib, tarixiy jarayonlarga xolisona baho berilgan. Ular sirasiga K.Hakimova, I.Bekmurodov, B.Valixo'jayev, G.A.Ahmadjonov, F.B.Is'hoqov, R.Qilichev, D.H.Ziyayeva, F.Qosimov, N.U.Musayev, G.A.Agzamova, I.Sanayev va boshqa mualliflarning asarlarini kiritish mumkin³¹. Bu asarlarda XIX asrning II yarmi – XX asr boshlarida Turkiston o'lkasining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, asrlar davomida shakllangan hunarmandchilik va savdo-sotiq ishlari tahlil qilingan.

Mustaqillik davrida olib borilgan yirik tadqiqotlar natijasi sifatida monografiyalar, o'quv qo'llanmalari va darsliklar³² chop etildi. Ularda XIX asrning II yarmi – XX asr boshlarida Zarafshon vohasining ijtimoiy-iqtisodiy tarixi masalalariga ham e'tibor qaratilgan. Uch jilddan iborat "O'zbekistonning yangi tarixi" kitobining I jildi³³ Turkiston o'lkasi, shu jumladan, Zarafshon vohasining mustamlaka o'tmishi to'g'risidagi tasavvurlarni boyitishga salmoqli hissa bo'lib qo'shildi.

Ilmiy izlanishlar jarayonida himoya qilingan bir qator ilmiy tadqiqot ishlari ham o'rganilib chiqildi. Ular jumlasiga N.A.Abduraximova, D.X.Razzoqov, R.Qilichev, N.U.Musayev, G.A.Agzamova, A.Quraxmedov, K.Pardayev, Sh.S.G'afforov, R.E.Holiqova va boshqalarning ilmiy tadqiqotlari³⁴ kiradi.

³⁰ Баракаев Ж., Хайдаров Й. Бухоро тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1991; История Узбекистана (XVI – первая половина XIX вв.). – Ташкент: Шарк, 1993; Зиёев Х. Туркистонда Россия тажовузи ва хукмронлигига қарши кураш (XVIII-XX аср бошлари). – Тошкент: Шарк, 1998; Ўзбекистоннинг янги тарихи. I китоб. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. – Тошкент: Шарк, 2000.

³¹ Хақимова К.З. Крестьянство Бухарского эмирата в конце XIX – начале XX вв. – Ташкент, 1991; Бекмуродов И. Каттақўрғоннинг қисқача тарихи. – Самарқанд: Зарафшон, 1993; Валихўжаев Б. Хожа Ахрор тарихи // Самарқанд ва самарқандликлар. – Тошкент, 1994; Ахмеджанов Г.А. Российская империя в Центральной Азии (История, историография колониальной политики царизма в Туркестане). – Ташкент, 1995; Санаев И. Зиёвуддин тарихи. – Тошкент: Шарк, 1995; Исхаков Ф. Национальная политика царизма в Туркестане (1867-1917). – Ташкент, 1997; Қиличев Р. Бухоро шаҳрида хунармандчилик (XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошлари). – Тошкент: Фан, 1996; Аъзамова Г.А. Сўнгги ўрта асрлар Ўрта Осиё шаҳарларида хунармандчилик ва савдо. – Тошкент: Ўзбекистон, 2000; Зияева Д. Туркистон миллий озодлик харакати: (Мустабид тузумга қарши). – Тошкент, 2000; Қосимов Ф. Ўзбек давлатчилиги тарихида Бухоро хукмронларининг ўрни // Тарих, мустақиллик, миллий ғоя. – Тошкент, 2001; Мусаев Н. XIX асрнинг II ярми – XX асрнинг бошларида Туркистонда саноат ишлаб чиқаришининг шаклланиши. – Тошкент: IQTISOD-MOLIYA, 2008.

³² Ўзбекистон тарихи. II жилд. – Тошкент: Фан, 1993; Туркестан в начале XX века. К истории истоков национальной независимости. – Ташкент: Шарк, 2000.

³³ Ўзбекистоннинг янги тарихи. I китоб. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. – Тошкент: Шарк, 2000.

³⁴ Абдурахимова Н.А. Колониальная система власти в Туркестане (вторая половина XIX – начала XX вв.) Автореф. дисс. ... докт. ист. наук. – Ташкент, 1994. – 51 с.; Раззаков Д.Х. Внешние торговые связи Бухарского ханства (60-90 гг. XIX века). Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 1995; Қиличев Р. XIX аср охири – XX аср бошларида Бухоро шаҳри хунармандчилиги. Тарих фан. номз. дисс. ... автореф. – Тошкент, 1997; Мусаев Н.У. Формирование и развитие промышленного производства в Туркестане (конец XIX – начало XX вв.). Автореф. дисс. ... докт. ист. наук. – Ташкент, 1999; Агзамова Г.А. Города и городская

Tanlangan tadqiqot mavzimiz tarixini yanada keng va atroflicha ilmiy tahlil qilishimizda, xususan, XIX asr ikkinchi yarmi – XX asrning dastlabki o‘n yilliklarida hunarmandchilik va hunarmandlarning ijtimoiy ahvoli haqida tasavvurlarimizning boyishida N.Musayev, A.To‘xtayev, N.Buranovalarning ilmiy tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega bo‘ldi³⁵.

Bundan tashqari, mustaqillik yillarida matbuotda bir qancha maqolalar e‘lon qilindi. Ular qatoriga G.A.Agzamova, D.Ziyayeva, Q.Jumayev, G.Ostonova, S.Aliyeva, A.Quraxmedov, F.Ochildiyev, Q.Rajabov, R.Xoliqova va boshqalarning maqolalari³⁶ ham o‘rganilayotgan davr haqidagi tasavvurlarni boyitishga xizmat qiladi.

Mustaqillik yillarida hunarmandchilik sohasi san‘atshunos olimlar tomonidan o‘zlarining fan yo‘nalishlari nuqtayi nazaridan tadqiqot obyektini sifatida yondashilib, asosiy e‘tibor san‘atning qirralari, turlari va san‘at darajasida yaratilgan hunarmandchilik asarlarining yaratilish usullariga qaratiladi.

To‘rtinchi guruhga kiritilgan xorijiy tadqiqotlarda mavzuning ayrim jihatlari XX asr boshlarida yaratilgan asarlarda keltirilgan. Bular jumlasiga G.Normann, B.Jokelson, J.Kunits, M.Xoldsvort, S.Bekker, Dj.Uiler, R.Pirslarning asarlarini kiritish mumkin³⁷. Ularda hunarmandchilik markazlarining umumiy va o‘ziga xos

жизнь в Узбекистане в XVI – первой половине XIX веков. Автореф. дисс... докт. ист. наук. – Ташкент, 2000. – 66 с.; Курахмедов А.Э. Экономическая и культурная жизнь Самаркандской области второй половины XIX – начале XX вв. (по материалам “Туркестанского сборника”) Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 2001. – 30 с.; Пардаев К.К. Ўрта Зарафшон (Миёнкол) воҳасининг XIX-XX аср бошларида ижтимоий-сиёсий, иқтисодий ва маданий ҳаёти. Тарих фан. номз. дисс... – Тошкент, 2003; Гаффоров Ш.С. Переселенческая политика Российской империи в Туркестане (вторая половина XIX – начала XX веков). Автореф. дисс... докт. ист. наук. – Ташкент, 2003; Холиқова Р.Э. XIX аср иккинчи ярми XX аср бошларида Россия – Бухоро муносабатлари тарихи. Тарих фан. док. дисс.... автореф. – Тошкент, 2006.

³⁵ Мусаев Н.У. Формирование и развитие промышленного производства в Туркестане (конец XIX – начало XX вв). Дисс. ... докт. ист. наук. – Ташкент, 1999; Тўхтаев А.Қ. Ўзбекистонда миллий хунармандчилик ва уни социалистик асосда саноатлаштиришнинг ижтимоий оқибатлари (1917-1941 йиллар). Тарих фан. номз. дисс. – Тошкент, 2001; Буранова Н.А. Ўзбекистоннинг марказлашган халқ хўжалиги тизимида киритилиши ва унинг оқибатлари (саноат мисолида, 1925-1940 йиллар). Тарих фан. номз. дисс. – Тошкент, 2010.

³⁶ Агзамова Г.А. Туронзамин карвон-саройлари // Фан ва турмуш. – Тошкент, 1997. – № 3; О‘sha muallif: Бозор шаҳарлар кўрки // Фан ва турмуш. – Тошкент, 1998. – № 1; Зияева Д. XIX-XX аср бошларида Туркистон шаҳарлари тадбиркорлик тарихидан // Ўзбекистон тарихи. – Тошкент, 2007. – № 3; О‘sha muallif: Хориж сайёҳлари Туркистонда тадбиркорлик ҳақида // Moziydan sado. – Тошкент, 2008. – № 1; Жумаев Қ. XIX аср охири – XX аср Ёждувон анъанавий каштачилиги // Санъат. – Тошкент, 2002. – № 2; Остонова Г. Бухоро зардўзлари // Соғлом авлод учун. – Тошкент, 2001. – № 10-11; Алиева С. Ёждувон кулолчилиги анъаналари // Санъат. – Тошкент, 2003. – № 3; О‘sha muallif: Самарқанд кулолчилиги // Санъат. – Тошкент, 2004. – № 3-4; Курахмедов А. Самарқандлик хунармандлар // Фан ва турмуш. – Тошкент, 2000. – № 5; Очилдиев Ф. Бухоро амирлигида иқтисодий ҳаёт // Жамият ва бошқарув. – Тошкент, 2001. – № 2; Ражабов Қ. Амир Шоҳмурод ёхуд Амири маъсум (Турон тарихидан унинг тутган ўрни) // Бухоро мавжлари. – Бухоро, 2006. – № 1; Холиқова Р. XIX аср охири – XX аср бошларида Россия – Бухоро ўртасидаги иқтисодий муносабатлар тарихидан лавҳалар // Таълим тизимида ижтимоий-гуманитар фанлар. – Тошкент, 2003. – № 1, 2.

³⁷ Norman.H. Travels and studies in contemporary European Russia. Finland Siberia the Caucasus Central Asia. – London, 1902. – P. 476; Jochelson B. Peoples of Asiatic Russia. – New York, 1928. – P. 259; Kunits. J. Dawn over Samarkand.The rebirth of Central Asia. – New York, 1935. – P. 348; Holdsworth.M. Turkestan in the nineteenth century. A brief history of the khanates of Bukhara Kokand and Khiva. – Oxford, 1959. – P. 80; Becker Seymour. Russias protectorates in Central Asia Bukhara and Khiva. 1865-1924. – Cambridge, 1967. – P. 416; Wheeler G. The modern history of Soviet Central Asia. – London, 1964. – P. 272; Pierce R. Russian Central Asia. Bukhara and Khiva. 1865-1924. – Cambridge, 1968.

xususiyatlari haqida ma'lumotlar mavjud³⁸.

Mustaqillik yillarida milliy hunarmandchilikning rivojlanishi haqida fransuz tadqiqotchilari tomonidan ham asarlar yaratildi. Shu jumladan, Jerard De Jorj va Chuvin Perlarning tadqiqotlarida o'zbek hunarmandchiligi sohalari – naqqoshlik, kashtachilik tarixiga oid bo'lgan ma'lumotlar berilgan³⁹. Milliy hunarmandchilikning ajralmas qismi bo'lgan kulolchilik va kashtachilik to'g'risidagi qimmatli ma'lumotlar yana bir fransuz tadqiqotchisi Frederik Bopertyui-Bressan tomonidan yaratilgan asarda berilgan. Xususan, Buxoro zardo'zligi, Urgut kashtachiligi va ularning o'ziga xos xususiyatlari, kulolchilikda naqshlar va ranglar tarkibiga oid ma'lumotlari bilan ajralib turadi⁴⁰.

Xorijlik tadqiqotchilar orasida an'anaviy o'zbek kashtachilik hunarmandchilik sohasiga ham doimo qiziqish bo'lgan. Shulardan, M.Fransis va K.Pinnerlarning tadqiqotlarida bu ko'zga tashlanadi. Ularning orasida, ayniqsa, Yoxannes Kalter XIX asr G'ijduvon so'zanasini haqida fikr yuritib, Linden Muzeyi (Shtutgart, Germaniya) kolleksiyasidagi XIX asrga taalluqli Buxoro, G'ijduvon so'zanalari to'g'risida tadqiqotlar olib borgan⁴¹.

Xorijiy mutaxassislar tadqiqotlarida hunarmandchilikdagi an'analar, ustozshogird munosabatlari, respublikaning turli hududlaridagi hunarmandchilik markazlari faoliyati o'rganilib, ularning o'ziga xos jihatlari, mahsulot turlari, tayyorlanish uslublari hamda xalq usta-hunarmandlari haqida ma'lumot berilgan⁴².

Ta'kidlash joizki, xorijiy tadqiqotlarda Turkistonda sanoat ishlab chiqarish infratuzilmasi, sanoat korxonalarini shakllanishi, ularning o'lka aholisi ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ta'siri masalalari, bozor iqtisodiyotida mehnatning xo'jalik shakllari, mintaqaga rus va chet el kapitalining kirib kelishi jarayonlari masalalari ilmiy aksini deyarli topmagan. Umuman olganda, xorijiy tadqiqotlarda mavzuni o'rganishga o'ziga xos nuqtayi nazar va yondashilib ma'lum yutuqlarga erishilgan bo'lsa-da, ba'zan bir-biriga qarama-qarshi xulosalarga ham kelingan.

Dissertatsiyaning **“XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Zarafshon vohasida hunarmandchilik ishlab chiqarishidagi o'zgarishlar”** deb nomlangan ikkinchi bobida Zarafshon vohasini hunarmandchiligidagi o'zgarishlar hamda hunarmandchilikning hududlarga xos xususiyatlari ilmiy jihatdan tadqiq etilgan. Shuningdek, siyosiy jarayonlarning hunarmandchilik ishlab chiqarishiga ta'siri masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

XIX asrning o'rtalarida Zarafshon vohasini hunarmandchiligi ma'lum darajada jonlanish bo'lib, unga shaharlar aholining nisbatan tez ko'payishi katta ta'sir ko'rsatgan. Voha aholisining qo'shni viloyatlar va mamlakatlar bilan savdo-sotiq

³⁸ Pander K. Zentralasien. Ostfeldern: DuMont Reiseverlag, 2005. – P. 384; Judith Peltz. Usbekistan entdecken. – Berlin, 2007. – P. 290; Keller G. Frauen kultur in Usbekistan. – Denzlingen, 2002. – P. 288; Wollenweber B., Franke P. Usbekistan. Land zwischen Orient und Okzident. – Berlin: Wostok, 2007. – P. 91.

³⁹ Degeorge G., Chuvin. Samarcande Boukhara. Khiva. – Paris: Flammarion, 2001. – P. 230.

⁴⁰ Beaupertuis-Bressand F. Samarkand la magifigue. – Marsel: Georges Naef, 2003. – P. 255.

⁴¹ Johannes Kalter: Abteilungsleiter Islamischer Orient. Linden-Museum Stuttgart. – Stuttgart, 1987; Johannes Kalter, Margareta Pavaloj (Hg.): Erben der SeidenstraÙe – Usbekistan. [Ausstellungskatalog] Linden-Museum Stuttgart. – Stuttgart, London, 1995.

⁴² Degeorge G., Chuyin. Samarcande Boukhara. Khiva. – Paris: Flammarion, 2001. – P. 230; Keller G Frauen kultur in Usbekistan. – Denzlingen, 2002. – P. 288;

aloqalari rivojlana boshlagan. Shu bilan birga, asrlar davomida amirlik hududlarida barcha sohalarda shakllanib kelgan ijtimoiy tengsizlik Zarafshon vohasi aholisi o'rtasida ham yaqqol sezilib turgan⁴³.

O'rganilayotgan davrda Zarafshon vohasi shaharlari va yirik qishloqlarida yashagan aholining hayotida hunarmandchilik hamda tadbirkorlik yetakchi o'rinlardan birini egallagan. Zotan, hunarmandchilik va savdo-sotiq voha iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarini tashkil etib mamlakat ishlab chiqarishining asosiy omiliga aylanib borgan. Hunarmandlarga esa jamiyatda alohida mavqega ega bo'lgan ijtimoiy toifa sifatida qaralgan.

Tashqi savdo aloqalarining kuchayishi, vohada yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlariga talabning oshishi, ayniqsa, paxtachilikka e'tibor kuchayishi bu sohada tovar-pul munosabatlarning rivojlanishiga imkoniyat yaratdi⁴⁴.

Vohada aholining hunarmandchilik mahsulotlariga bo'lgan talabi oshib borishi va xom ashyo yetishtirish imkoniyatlariga qarab tumanlar turli sohalarga ixtisoslasha boshladi. Masalan, ip-gazlama mahsulotlari yetishtirishda Buxoro shahri yetakchi hisoblangan bo'lsa, G'ijduvon shahri kulolchilik mahsulotlari bilan shuhrat topdi. Kattaqo'rg'onda tayyorlangan poyabzal mahsulotlari butun Turkiston o'lkasida mashhur bo'lgan.

Tarixiy manbalar XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ijtimoiy-iqtisodiy hayotda hunarmandchilik hamda tadbirkorlik alohida o'rin tutganligidan dalolat beradi. Shu bilan birga, ushbu manbalar yuqorida tilga olingan sohalarda ro'y bergan miqdor va sifat o'zgarishlarini ham o'zida aks ettiradi.

Eng avvalo, shuni ta'kidlash joizki, vohaning Rossiya mustamlakasiga aylantirilishi, bu yerda kapitalistik munosabatlarning vujudga kelishi, sanoat korxonalarining paydo bo'lishi, yangicha ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar aholi hayotiga, ayniqsa, hunarmandlar faoliyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Hunarmandchilikning ayrim tarmoqlari tushkunlikka uchradi, ba'zi tarmoqlari yuzaga kelgan yangi iqtisodiy sharoitga moslashib bordi. Har holda tadqiq etilayotgan davrda o'troq aholi orasida ham, ko'chmanchilar o'rtasida ham hunarmandchilik o'zining avvalgi mavqeyini deyarli saqlab qoldi. Ta'kidlash joizki, buning sababi vohada vujudga kelgan dastlabki sanoat korxonalarining rivojlanish darajasi pastligi bilan bog'liq edi.

Garchi xalq hunarmandchiligi uy sharoitidan chiqib, keng ko'lamdagi sanoat ishlab chiqarishi darajasiga ko'tarilolmagan bo'lsa-da, mayda kustar holda ishlab chiqarilgan mahsulotlar xorijiy davlatlarga ham chiqarilardi. Ya'ni bir qarashda g'aribgina ko'rinadigan qulbola dastgohlarda tayyorlangan hunarmandchilik mahsulotlari o'z qimmatini va ahamiyatini yo'qotmadi.

Turkiston hunarmandchiligining faol tadqiqotchilaridan biri bo'lgan graf Golovin "Kustarnie promisli Turkestana" nomli maqolasida "Turkistonda hunarmandchilik turlari nihoyatda ko'p bo'lib, ularning ayrimlari nafaqat mahalliy, balki umumdavlat ahamiyatiga molikdir"⁴⁵ deya e'tirof etib o'tganligi ham bu

⁴³Кисляков Н.А. Патриархально-феодалные отношения среди оседлого сельского населения Бухарского ханства в конце XIX – начале XX века. – М.: Издательство АН СССР, 1962. – С. 23.

⁴⁴Этнографические очерки узбекского сельского населения. – М.: Наука, 1969. – С. 74.

⁴⁵Головин Г. Кустарные промыслы Туркестана // Туркестанский сборник. Т. 512. – С. 17.

fikrimizni to‘la-to‘kis isbotlaydi.

To‘qimachilik, ko‘nchilik, temirchilik, misgarlik, zargarlik, poyabzal tayyorlash, kulolchilik, bo‘yoq tayyorlash, degrezlik, gilamdo‘zlik va boshqa kasb-korlar XIX asr oxiri – XX asrning boshlarida Zarafshon vohasi hunarmandchiligining asosiy sohalari sanalgan. Buxoro, Samarqand, G‘ijduvon, Kattaqo‘rg‘on, Karmana, Urgut singari shaharlar va aholi punktlari yirik hunarmandchilik markazlari maqomiga ega edi.

Zarafshon vohasining shahar va qishloqlarida faoliyat ko‘satgan hunarmandlar ham aholining boshqa qatlamlari singari turli soliq hamda yig‘imlarni to‘lashga, majburiyatlarni ado etishga mas‘ul edilar. Voha qishloqlarida yashagan hunarmandlarning hayoti shaharlik ustalarnikidan ko‘ra og‘irroq kechgan. Zarafshon vohasi hunarmandlari ham ming mashaqqatlar evaziga o‘sha davr talablariga moslashib borishdi. “Zarafshon vohasida yashayotgan mahalliy xalqlar, – deb yozadi A.Grebenkin, – hunarmandchilikda yangi-yangi va sifatli mahsulotlar tayyorlash bilan zamon talabi darajasida ish olib borganlar”⁴⁶. Tabiatan sabr-bardoshli va mehnatkash hunarmandlar har qanday murakkab sharoitlarda ham o‘zlarining otameros kasbini e‘zozlab, bu boradagi azaliy an‘analarni saqlab qolishgan.

Hunarmandchilikning rivoji, savdo-sotiqning kengayishi ma‘lum darajada voha aholisi madaniy hayotining jonlanishiga xizmat qildi. Bu jarayonni G.Golovin fikrlaridan ham bilish mumkin. U ta‘kidlaydiki: “Turkiston aholisining kundalik hayotida asqotadigan ko‘plab xo‘jalik buyumlari rus dehqonining shunday buyumlaridan ancha ustun. Masalan, oddiy rus kishisining kiyimi xonaki tayyorlangan dag‘al materiallardan, nari borsa, fabrikada ishlab chiqarilgan arzon chitdan tikilgan. Turkistonliklar esa nozik gazlamadan tikilgan, ko‘pincha shoyi kiyim kiyish imkoniga ega; ularning issiq ko‘ylagi tuya yoki qo‘y junidan to‘qilgan. Yupqa rangdor teridan tikilgan, kalish bilan kiyiladigan mahsini rus dehqonining qo‘pol chorig‘i bilan aslo qiyoslab bo‘lmaydi. Mis idishlar, ayollarning kumush bezaklari, mohirona ishlangan egar-jabduqlar har qadamda ko‘zga tashlanadi. Buning boisi, ularni tayyorlash uchun zarur bo‘ladigan materiallarning seroblighi va arzonligiga, shuningdek, mahalliy aholining ulardan bejirim va amaliy buyumlar ishlab chiqarish bobida omilkorligiga borib taqaladi”⁴⁷.

Zarafshon vohasi aholisining an‘anaviy hunarmandchiligini tarixiy jarayonlar kontekstida o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, ularni umumiy bitta madaniy yaxlitlikda rivojlangan deb aytish qiyin albatta. Bu esa o‘ziga xos an‘anaviy xususiyat aks etgan alohida tarixiy mintaqalar misolida hududlar xo‘jalik-madaniy hayotidagi o‘zgarishlarni tadqiq qilish orqali yoritib berishga imkon tug‘diradi. Bu tadqiqotning muhimligi – Zarafshon vohasi hunarmandchiligi alohida markaz va maktablar tarzida shakllanib, lokal va umummintaqaviy xususiyatlar asosida rivojlanganligini ko‘rsatadi.

Dissertatsiyaning **“Sovet davlati hukmronligi davrida hunarmandchilik**

⁴⁶ Гребенкин А. Таджики Зеравшанской долины // Туркестанский сборник. Т. 406. – С. 184.

⁴⁷ Головин Г. Кустарные промыслы Туркестана // Вестник выставки, 1909. – № 1.

ishlab chiqarishining umumiy holati” deb nomlangan uchinchi bobida o‘rganilayotgan davrda kapitallashuvdan ijtimoiy mulkchilikka o‘tish jarayonlari, Zarafshon vohasi hunarmandchiligining ko‘rinishlari va holati yoritib berilgan.

Bu davrda hunarmandchilik va hunarmandlarga bo‘lgan munosabat o‘zgarib, hunarmandchilik ustaxonalari va dastgohlari bolsheviklar tomonidan musodara qilindi. Hunarmandlarga “mayda tovar ishlab chiqaruvchilar”, ya’ni eziluvchi sinf sifatida qaralib, hunarmandchilik sohasi butunlay yangi tashkiliy tizim tarzida qaytadan qurildi. Natijada hunarmandchilik sohasining ba’zi turlari o‘zgardi va ayrimlari siquv ostiga olindi.

O‘rganilayotgan davrda O‘zbekistonda hunarmandlarni kooperatsiyalarga jalb qilish jarayoni ikkita, ya’ni Turkiston hunarmandchilik uyushmasi – “Turkpromsoyuz” tashkil qilinishi (1921-yil, fevral)⁴⁸ hamda O‘zbekiston hunarmandchilik uyushmalari – “Uzpromsoyuz” faoliyati (1925, dekabr)⁴⁹ bilan bog‘liq bo‘ldi.

1920-yilda Samarqandda artellar soni 76 ta bo‘lib, unda 6764 kishi a’zo edi⁵⁰. 1921-yilning dastlabki 3 oyida Samarqandda hunarmandlar tomonidan 18 ming ta ketmon va omochlar, 90 ming arshin turli xil matolar, 290 pud kalava iplar, 150 ta po‘stin, 750 juft etiklar, 2 ming ta kovushlar, 9 ming ta oshlangan teri mahsulotlari ishlab chiqarilgan⁵¹.

1925-1926-yillarda Samarqandda 2137 ta, Kattaqo‘rg‘onda 145 ta, Buxoroda 1499 ta, Vobkentda 117 ta, G‘ijduvonda 115 ta, Urgutda 464 ta mayda hunarmandchilik xo‘jaliklari mavjud bo‘lgan⁵².

Zarafshon vohasida hunarmandchilikning sanoat asosiga o‘tkazilishi, tarmoq va turli ishlab chiqarish imkoniyatlariga ega bo‘lgan ustaxonalar hamda hunarmandlarning tashkiliy jihatdan uyushma, kooperatsiya va artellarga birlashtirilishi, ularni sovet xukumati va uning manfaatlari yo‘lida xizmat qildirish turli xil usul hamda yo‘llar bilan majbur qilindi. Hunarmandchilikning milliy va an’anaviy asoslariga putur yetkazilib, hunarmandlar o‘zi ishlab chiqargan mahsulotni sotishdan mahrum qilindi.

Yangi iqtisodiy siyosat asoslarini hayotga joriy etish va, ayniqsa, shahar hamda qishloqlar o‘rtasida tovar almashinuvining tiklash va jonlantirish ehtiyoji Turkiston sharoitida hunarmandchilik sanoatini tiklash muammosiga kelib taqalardi. Tarixan, hunarmandlar mahalliy aholi didi va odatiga mos xizmat ko‘rsatar, hatto yirik sanoati bo‘lmagani holda chetga chiqadigan buyumlar tayyorlashardi⁵³.

Urushdan keyingi dastlabki yillarda urush davrining iqtisodiy qiyinchiliklari sezilib turardi, vohaning shahar va qishloqlarida XX asr boshlarida qurilgan hunarmandchilik ustaxonalarini uchratish mumkin edi, lekin e’tiborsizlik sabab

⁴⁸ O‘zMA 25-fond, 1-ro‘yxat, 524-ish, 349-varaq.

⁴⁹ O‘zMA 297-fond, 1-ro‘yxat, 100-ish, 2-varaq.

⁵⁰ O‘zMA R-25-fond, 1-ro‘yxat, 371-ish, 211-varaq.

⁵¹ Samarqand viloyati DA, 74-fond, 1-ro‘yxat, 18-ish, 8-9-varaqlar.

⁵² O‘zMA R-89-fond, 2-ro‘yxat, 1172-ish, 255-varaq.

⁵³ Ғойибназаров Ш. Ижтимоий ривожланиш сабоқлари. 20-йиллар таҳлили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1994. – Б. 63.

ularning aksariyati ayanchli ahvolga tushib qolgan edi⁵⁴. Sovet hukumati hunarmandlarning kooperativ korxonalari, artellariga e'tibor bermadi, o'z holiga tashlab qo'ydi. Ularni yangi texnika bilan jihozlash imkoni bo'lmadi. Natijada, ularning moddiy-texnik bazasi zaiflashib bordi. Hunarmandlar malakasi oshirilmadi.

O'sha davrda hukm surgan ma'muriy-buyruqbozlik sharoitida hunarmandchilik kooperatsiyasi davlat organlari topshiriqlarini, ko'rsatmalarini so'zsiz bajarishga majbur bo'ldi. Artellar davlatlashtirilib, amalda davlat korxonalariga aylantirildi.

Hunarmandlar kooperatsiyasi, kooperativ mulkning mavjudligi rahbar sovet tashkilotlarini qoniqtirmay qo'ydi. 1956-yil 14-aprelda sobiq KPSS Markaziy Qo'mitasi va SSSR Ministrlar Kengashining qaroriga muvofiq⁵⁵ O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo'mitasi hamda O'z SSR Ministrlar Kengashi, viloyatlar, shahar qo'mitalari, tuman partiya tashkilotlariga, Qoraqalpog'iston ASSR Ministrlar Kengashi, viloyat, shahar, tuman ijroqo'mlari va O'zbekiston hunarmandchilik kengashlari ("Uzpromsovet")ga hunarmandchilik artellari a'zolarining umumiy yig'ilishi qaroriga asoslanib, hunarmandchilik kooperatsiyasi korxonalarini davlat idoralari va matlubot kooperatsiyalari boshqaruvi ixtiyoriga o'tkazish yuklatildi. Natijada, hunarmandchilik artellari yiriklashtirilgan korxonalarga aylantirildi. Sovet organlarining bu keskin tadbiri hunarmandchilikni cheklabgina qolmay, uning ko'p turlari yo'q bo'lishiga olib keldi. Asosan, nogironlar artellari, ularni ish bilan ta'minlash maqsadida va xalq badiiy hunarmandchiligi saqlab qolindi.

Zarafshon vohasining shahar va tumanlarida ham hunarmandchilik kooperatsiyasining davlat korxonalari bilan yonma-yon mavjud bo'lishiga yo'l qo'yilmadi. O'zbekiston KP MQ va O'z SSR Ministrlar Kengashi respublikada hunarmandchilik-kooperativ sanoatining foydasiz soha deb topdi hamda 1960-yil 13-aprelda "Respublika mahalliy va hunarmandchilik kooperatsiyasi sanoati ishlarini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida" qaror qabul qilindi⁵⁶. Qarorga asosan mahalliy hunarmandchilik kengashi ("Uzpromsovet")ning nogironlar artellariga aylantirilib, ularni ish bilan ta'minlash maqsadida xalq badiiy hunarmandchiligi saqlab qolindi. Hunarmandchilik artellari yangi tashkil qilingan O'zbekiston bosh mahalliy sanoati ("Uzglavmestprom") ixtiyoriga berildi⁵⁷. Ana shu tariqa O'zbekiston hunarmandchilik kengashi va uning tarmoqlari 1960-yillarga kelib umuman tugatildi.

Sovet hukumatining hunarmandlarga salbiy munosabati tufayli gazlama, gilamdo'zlik, kigiz tayyorlash, ko'nychilik, misgarlik, bo'yoqchilik va boshqa ko'plab hunarmandchilik turlari soha sifatida 60-yillardan boshlab yo'q bo'lib ketdi. Ular ishlab chiqargan mahsulot turlari va hajmi kamaydi. Kooperativ sanoat,

⁵⁴ Кадырова Г. Отчет о научной командировке в Самарканд, Фергану, Коканд, Маргелан, Алмалык, Янгиюль, Чирчик. Рукопись. O'zMA R-2731-fond, I-ro'yxat, 382-ish, 2-3-varaqlar.

⁵⁵ Литвак Л.Е., Цыпкина М.А. Развитие местной и кооперативной промышленности Узбекистана. – Ташкент: Госиздат Уз ССР, 1957. – С. 59.

⁵⁶ O'zMA 2325-fond, I ro'yxat, 66-ish, 25-varaq.

⁵⁷ O'zMA 2325-fond, I ro'yxat, 66-ish, 25-varaq.

asosan, artellar mahsuloti 1940-yilda respublika sanoati hajmining 19 % ini tashkil qilgan bo'lsa, 1958-yilda 8,5 % ini, 1962-yilda esa atigi 3 % ini tashkil etdi.

Davlat korxonalari bilan bir qatorda xususiy yoki kooperativ mulkka asoslangan hunarmandchilikning bo'lishi respublika iqtisodiy-madaniy hayotida muhim ahamiyat kasb etishiga qaramasdan sovet rahbarlarining o'zboshimchaligi tufayli hunarmandlar kooperatsiyasi asossiz tugatildi. Bu respublika aholisini hayotiy zarur mahsulotlar bilan ta'minlash va maishiy xizmat ko'rsatish ahvolini mushkullashtirdi.

Keyingi yillarda respublika badiiy hunarmandchiligi milliy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida tiklana boshladi. Bu davrda O'zbekistonda faqat badiiy hunarmandchilikka ruxsat berildi va mahalliy sanoatning maxsus tarmog'i sifatida qayta tashkil qilindi. Hunarmandchilik mahsulotlari amaliy san'at darajasiga ko'tarilib, undan ko'rgazma ekspozitsiyasi sifatida foydalanilgan bo'lsa, boshqa tomondan aholining badiiy hunarmandchilik buyumlariga bo'lgan ehtiyojining ortib borishi, mahsulotlarni qo'lda tayyorlash bilan bir paytda mashinada ishlab chiqarishga ham o'tilishi edi.

Umuman olganda, zavod fabrika mahsulotlarining ko'plab keltirilishi va ishlab chiqarilishi nafaqat hunar turini, balki ishlab chiqarish mahsulotlarining shakli va sifatini ham o'zgartirdi. Bu davrdagi Zarafshon vohasi hunarmandchiligi bir tomondan taraqqiyotga moslashish, ikkinchi tomondan esa sovet hokimiyati ma'muriy-buyruqbozlik faoliyatining natijasi edi.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi **“Mustaqillik yillarida Zarafshon vohasida milliy hunarmandchilikning tiklanishi va rivojlanishi”** deb nomlanib, an'anaviy hunarmandchilik sohasidagi o'zgarishlar va islohotlarning tahliliga bag'ishlangan bo'lib, Zarafshon vohasi aholisining an'anaviy hunarmandchiligi ko'rinishlari va zamonaviy hunar turlarining rivojlanish xususiyatlari yoritilgan.

O'zbekistonda hunarmandchilikni an'anaviy milliy san'at o'zanida rivojlantirish uchun ijtimoiy-ma'naviy asos va ming yilliklar davomida shakllangan xalq hunarmandchiligi tajribasi mavjud ekanligini e'tiborga olinib, Respublika hukumati tashabbusi bilan mustaqillik yillarida sohani tadrijiy rivojlantirish borasida ko'plab farmon va qarorlar qabul qilindi⁵⁸. Xalq ustalari va hunarmandlari mehnat sharoitlarini yaxshilash, ularning ijodiy ishlari uchun to'lanadigan soliqlardan ozod qilinishi, ko'plab xalq ustalari ijodining respublikamiz va chet ellarda namoyish etilishi uchun imkoniyatlarning kengaytirilishi, ularni rag'batlantirish kabi ko'plab tadbirlar, shubhasiz, milliy hunarmandchiligimiz rivojida benihoya o'rin tutadi.

O'rganilayotgan davrda hunarmandlarning mehnat faoliyati va taqsimot munosabatlariga berilgan asosiy e'tibor ularda ishbilarmonlik, tadbirkorlik, kasanachilik, moddiy manfaatdorlik ijtimoiy-iqtisodiy stimullarning shakllanishiga

⁵⁸ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ахборотномаси. – Тошкент, 1991. 30 октябрь. – № 10; Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ахборотномаси. – Тошкент, 1991. 30 декабрь. – № 12; Маърифат, 1997, 2 апрель; Халқ сўзи, 1997, 4 июнь; Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. – Тошкент, 2005; Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. – Тошкент, 2006; Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. – Тошкент, 2007; Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. – Тошкент, 2008; Халқ сўзи, 2010, 31 март

ham olib keldi. Ko‘rilayotgan chora-tadbirlar natijasida mustaqillik yillarida Zarafshon vohasida an‘anaviy hunarmandchilik taraqqiyotida ham o‘zgarishlar yuz berdi. Voha hunarmandlarining 1994-yil 7-15-oktabr kunlari Pokiston davlatining Islomobod shahrida o‘tkazilgan “Ustalar ish ustida” nomli I Xalqaro hunarmandchilik festivalida Buxorolik ustalar zardo‘z B.Jumayev, miniatyurachi usta N.Nigmatov, kandakor usta Sh.Kamolov, musiqa asboblari yasovchi usta K.Muqimov, xattot usta G‘.Razzoqov, G‘ijduvon kulolchilik maktabi vakili A.Narzullayev, yog‘och o‘ymakori usta A.Qodirov, to‘quvchi usta Q.Jumayev kabi mohir hunarmandlar o‘zlari yaratgan hunarmandchilik mahsulotlari bilan ishtiroki⁵⁹ an‘analar saqlanganligini ko‘rsatdi.

90-yillar oxirlarida Buxoro viloyatida 324 nafar xunarmandga shahardagi qadimiy obidalaridagi hujralardan xonalar, bozorlardan rastalar ajratilgan⁶⁰. Samarqandda 1997-yil 11-avgustidan Ruhobod yodgorliklar majmuasi “Hunarmand” uyushmasiga birlashtirilgan va bu manzilda “Ruhobod” hunarmandlar markazi tashkil etilgan⁶¹.

2008-yil 20-avgustda Navoiy viloyatida bo‘lib o‘tgan “Xalq amaliy san‘ati” ko‘rgazmasi, 2008-yil 26-avgustda Samarqand viloyatida “Samarqand hunarmandchiligi azaliy meros yoshlar ardog‘ida” nomli ko‘rik tanlovi⁶², 2009-yil 11-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi, Respublika bolalar badiiy ijodiyoti markazi bilan hamkorlikda “Bobolar merosi – vorislar ijodida” nomli “Usta shogird” ko‘rgazmasi, 2009-yil 15-17-fevral kunlarida Buxoro viloyati San‘at muzeyida “Yosh ijodkorlar” ko‘rgazmalarining o‘tkazilishi⁶³ yoshlar hayotida milliy hunarmandchilik an‘analariga nisbatan olib borilayotgan ishlarning samarasini ko‘rsatdi. 2012-yil 9-10-iyun kunlari Buxoro shahrida an‘anaviy “Ipak va ziravorlar” xalqaro festivali o‘tkazildi. 2012-yil aprel-dekabr oylarida respublika hududlarida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki, O‘zbekiston Respublikasi Milliy tiklanish partiyasi va “Hunarmand” uyushmasi hamkorligida “Bank kreditlarining oilaviy tadbirkorlik va milliy hunarmandchilik rivojidadagi ahamiyati” mavzusidagi seminarlar o‘tkazilganligi hamda Samarqand viloyati bo‘yicha 20 000 000 so‘m bank kreditlari ajratilishi, viloyat hunarmandlariga 250 mln so‘mlik kreditlar ajratilganligi⁶⁴ sohaga e‘tibor yildan yilga oshganligini ko‘rsatadi.

Tarixiy obidalar, yodgorlik majmualari va mehmonxonalarda chet elliklarga xizmat kiluvchi 104 ta savdo-ko‘rgazma zallari, savdo do‘konlari va galereyalar ishlab, bu do‘konlarda har oyda 60 mln. so‘mgacha hunarmandchilik mahsulotlari bilan savdo qilingan. Hunarmandlar bilan kelishgan holda, talab va ehtiyojni o‘rganib bu do‘konlarni yuqori saviyada tayyorlangan xalq amaliy san‘ati asarlari

⁵⁹ O‘zMA M-7-fond, 2-ro‘yxat, 109-ish, 64-varaq.

⁶⁰ Hunarmand uyushmasi Buxoro viloyat boshqarmasining joriy arxivi. Hunarmand uyushmasi Buxoro viloyat boshqarmasining 1998-yil faoliyati haqida hisoboti. – B. 5.

⁶¹ Hunarmand uyushmasi Samarqand viloyat boshqarmasining joriy arxivi. Hunarmand uyushmasi Samarqand viloyat boshqarmasining 1998-yil faoliyati haqida hisoboti. – B. 4.

⁶² Hunarmand uyushmasining joriy arxivi. 02-68 yig‘ma jild. “Hunarmand” uyushmasi 2008-yil hisobotidan.

⁶³ Hunarmand uyushmasining joriy arxivi. 02-68 yig‘ma jild. “Hunarmand” uyushmasi 2009-yil hisobotidan.

⁶⁴ Hunarmand uyushmasining joriy arxivi. 02-68 yig‘ma jild. “Hunarmand” uyushmasi 2012-yil hisobotidan.

bilan doimo ta'minlab turganligi⁶⁵ manfaatdorlikdan darak beradi.

2015-yil 28-may va 1 iyun kunlari Buxoro shahrida an'anaviy "Ipak va ziravorlar" xalqaro festivali o'tkazilib, unda "Hunarmand" uyushmasining 425 nafar a'zosi o'z mahsulotlari bilan ishtirok etdi. 2015-yil 7-iyul kuni Buxoro shahridagi drama teatrida uyushma a'zolarining mahorat darslari va hunarmandchilik mahsulotlarining ko'rgazmasi tashkil etilishi⁶⁶, 2015-yil 28-31-may kunlari Buxoro shahrida o'tkazilgan "Ipak va ziravorlar" festivalida Vengriya davlatidan ishtirok etgan delegatsiyaning taklifi hamda Vengriya davlatidan yuborilgan taklifnomaga asosan 2015-yil 18-28-avgust kunlari Vengriya davlatining poytaxti Budapesht shahrida bo'lib o'tgan xalqaro hunarmandchilik festivalida uyushma a'zolari ishtirok etishi sohadagi xalqaro hamkorlik aloqalarini tezlashayotganligida darak beradi.

Yurtimizda xalq amaliy san'ati va hunarmandchilikni rivojlantirishning huquqiy tamoyillari ishlab chiqilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 26-dekabrda Farmoniga asosan hunarmandlarga berilgan imtiyozlar 2017-yil 1-yanvarga qadar uzaytirildi. Bu imtiyozlar hunarmandlarning o'zlarini iqtisodiy jihatdan tiklab olishlari va ish faoliyatlarini yanada kengaytirishlari uchun keng imkoniyatlar eshigini ochdi. Buning yaqqol misoli sifatida Zarafshon vohasi viloyatlarida tashkil etilgan "G'ijduvon kulolchilik markazi", Vobkentda "Hunarmandchilik markazi", Shofirkondagi "Kashtado'zlik markazi", Buxoro viloyat markazidagi "Sovg'a" zardo'zlik markazi, "Buxoro mis kandakorligi", "Buxoro zargarligi", "Buxoro ipak gilamlari" kabi kichik korxonalarining tashkil etilganligini, Navoiyda "Hunarmandchilik markazi", Samarqandda "Samarqand hunarmandlar markazi", "Ruhobod hunarmandlar markazi" va Siyob bozorida hunarmandchilik mahsulotlarini sotishga mo'ljallangan maxsus rastalar tashkil etilishi usta hunarmandlar faoliyati yanada jonlanishiga olib keldi⁶⁷. O'zbekistonda milliy hunarmandchilik sohasining yanada taraqqiy etishi uchun muhim iqtisodiy va ma'naviy zamin yaratildi. Mustaqillik davrida o'tkazilgan islohotlar tufayli Zarafshon vohasi viloyatlarida milliy hunarmandchilik namunalarning xorijiy davlatlarda namoyish etilishi uchun keng yo'l ochildi. Mahalliy xom ashyodan tovar ishlab chiqarish va jahon bozoriga chiqarishga alohida e'tibor kuchaytirildi.

Zarafshon vohasi hunarmandchiligi sohasida yutuqlar bilan bir qatorda, ayrim muammolar ham mavjud. Avvalo, hunarmandlar tomonidan tayyorlanayotgan mahsulotlarning sifatini yanada oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratish lozim. Shuningdek, bugungi zamonaviy hunarmandchilik mahsulotlarida bu sohada uzoq davrlar mobaynida shakllangan badiiy an'analar qay darajada aks etayotgani masalasini ham nazardan qochirmaslik lozim. O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida keyingi 8 yil davomida ichki bozorlarimizda hunarmandchilik mahsulotlariga bo'lgan talab 30 foizga oshganligi aniqlangan. Biroq shunga qaramay, milliy hunarmandchilik mahsulotlarini xorijga eksport qilishni kengroq yo'lga qo'yish,

⁶⁵ Hunarmand uyushmasi Samarqand viloyat boshqarmasining joriy arxivi. Hunarmand uyushmasi Samarqand viloyat boshqarmasining 2010-2013-yillardagi faoliyati haqida hisoboti. – B. 6.

⁶⁶ Hunarmand uyushmasining joriy arxivi. 02-68 yig'ma jild. "Hunarmand" uyushmasi 2015-yil hisobotidan.

⁶⁷ Hunarmand uyushmasining joriy arxivi. 02-68 yig'ma jild. "Hunarmand" uyushmasi 2014-yil hisobotidan.

milliy mahsulotlarimizning dunyo bozorlariga chiqishini ta'minlash ishlari hali talab darajasida yo'lga qo'yilmagan.

Bozor uchun hamda ko'rgazmalarda namoyish etish uchun buyumlar tayyorlaydigan ustalar o'z mahsulotida hunarmandchilik an'analarini namoyon etishga alohida e'tibor qaratishadi. Bu tabiiy hol, albatta. Shu maqsadda ular buyumlarni tayyorlashda faqat an'anaviy uslublar, tabiiy ashyolar va bo'yoqlardan foydalanishadi. Shu bois ekologik jihatdan toza bo'lgan bunday buyumlarga talab hamisha yuqori bo'lib kelgan. Ayni chog'da, mazkur buyumlarni ishlab chiqarishda azaldan davom etib kelayotgan badiiy an'analar biroz nazardan chetda qolmoqda. Biz suhbatlashgan ba'zi ustalar bu boradagi "maktab"lar yo'qolib ketayotganidan tashvishlanishga hojat yo'qligini ta'kidlashadi. Ular hunarmandchilik sohalariga oid an'anaviy uslublar kelgusida ham saqlanib qolishiga ishonishadi. Ta'kidlash joizki, usta-hunarmandlar faoliyatini kuzatish jarayonida ularning aksariyati o'z hunari bo'yicha bilimlarga va tasavvurlarga ega emasligini ham sezish mumkin. Masalan, ular o'zlari tayyorlayotgan hunarmandchilik buyumlaridagi naqsh va ko'rinishlar qanday ma'noni anglatishi hamda qaysi ijodiy maktab an'analariga xos ekanligi haqida aniq fikrga ega emas. Shuningdek, hunarmand ustalar o'zlarining sohalariga taalluqli ilmiy adabiyotlardan bexabar. Xalq hunarmandchiligiga tarixiga oid, sohalarining yirik namoyandalari ijodi bo'yicha o'zbek tilida nashrlarning yo'qligi bunga asosiy sabab bo'lmoqda, deb hisoblaymiz. Keyingi yillarda ushbu yo'nalishda faqat ayrim nashrlar dunyo yuzini ko'rdi, xolos⁶⁸.

Mahalliy ustalarning o'z ustida yetarlicha ishlamasligiga bu borada bir paytlar muomalaga kirib, mumtoz namunaga aylanib qolgan nusxalarni takrorlash bilan cheklanib qolishlari sabab bo'lmoqda. Oqibatda ularning ijodiy imkoniyatlari cheklanib, faoliyatida ijodkorlik yo'qolishiga va an'anaviy birxillik saqlanishi kuzatilmoqda.

Bunday muammolarga barham berish maqsadida respublika "Hunarmand" uyushmasi tomonidan hunarmandchilik turlari bo'yicha yangi, saviyali adabiyotlar nashrini yo'lga qo'yish, hunarmand ustalar uchun turli o'quv seminarlari, treninglar, malaka oshirish kurslari va mahorat darslarini tashkil qilish davr talabiga aylandi.

Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatdiki, bugungi kunda Zarafshon vohasida boshqa bir qator sohalar vakillari ham hunarmandchilik bilan shug'ullanmoqda. Soha bo'yicha maxsus ta'lim bosqichini o'tagan hunarmandlar bu borada umumiy malakaviy ko'nikmaga ega ekanligi ko'zga tashlanadi. Lekin hunarmandchilikka boshqa sohalardan kirib kelganlar shaxslarning ijodiy salohiyati ancha sust, biroq manfaatparastlik kuchli ekanligi yaqqol sezilmoqda. Shu bois ular aksariyat hollarda ish jarayonida faqatgina oddiy texnik ijrochiga aylanib qolishmoqda. Bunday hunarmandlar foyda olish maqsadida bozorbop hunarmandchilik buyumlarini yaratishga zo'r berib, pala-partish faoliyat ko'rsatishmoqda. Misol uchun, ular O'zbekiston hududidagi turli maktablarga xos bo'lgan an'anaviy

⁶⁸ Асрий анъаналар давомчилари (Мустақил Ўзбекистоннинг халқ усталари). – Тошкент, 2016; Ўзбекистон хунармандчилиги ва амалий санъати. 2 томлик Энциклопедия. – Тошкент, 2016-2017.

bezaklardan bir misqoldan olib, ularni bir-biriga payvandlash orqali “san’at asari” yaratmoqchi bo‘lishib, asrlar davomida shakllangan an’analarga putur yetkazishmoqda. Yana ham aniqroq aytganda, yaqin o‘tmishdagi mahalliy maktablarning an’analari zamonaviy jarayonda bir-biri bilan qorishib ketmoqda. Tabiiyki, bunday jarayonlar hunarmandchilik sohasining rivojiga xizmat qilmaydi.

Hunarmandlarning o‘zlari shug‘ullanayotgan soha bo‘yicha barcha mahalliy maktablarga tegishli bo‘lgan an’analarni o‘zlashtirgani, bir tomondan, quvonarli bo‘lsa, ikkinchi tomondan, yuqoridagi kabi bir qator muammolarni keltirib chiqaradi. Shu sababli ushbu sohalar bo‘yicha shakllangan “maktab”larni nazoratsiz qoldirish bir qator muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Agar ushbu soha rivoji uchun ma’sul bo‘lgan respublika “Hunarmand” uyushmasi hozirdan zarur chora-tadbirlarni ishlab chiqmasa, xalq hunarmandchiligi sohasida “bir xillik” muammosi yanada chuqur ildiz otib, milliy hunarmandchilik sohalarida mintaqalarning mahalliy o‘ziga xosligi yo‘qolishi mumkin. Milliy madaniyatimizning bo‘lagi hisoblangan hunarmandchilikda badiiy jarayon va undagi sifatni nazorat qilish maqsadida “Hunarmand” uyushmasi qoshida malakali mutaxassislardan iborat ekspert kengashi tashkil qilinib, faqatgina mazkur kengash tomonidan tasdiqlangan andoza asosida yaratilgan hunarmandchilik buyumlarini savdoga chiqarish, eksport qilish tartibi yo‘lga qo‘yilsa, ijobiy natijalarga erishish mumkin.

